

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASINING
QARORI**

**MUHANDISLIK-KOMMUNIKATSIYA TARMOQLARIGA ULANISH BO‘YICHA
DAVLAT XIZMATLARI KO‘RSATISHNING MA‘MURIY REGLAMENTLARINI
TASDIQLASH TO‘G‘RISIDA**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Aholiga davlat xizmatlari ko‘rsatishning milliy tizimini tubdan isloh qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2017-yil 12-dekabrda PF-5278-son [Farmoniga](#) muvofiq va muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlariga ulanish bo‘yicha davlat xizmatlari ko‘rsatish tizimini yanada takomillashtirish maqsadida Vazirlar Mahkamasi qaror qiladi:

1. Quyidagilar muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlariga ulanish bo‘yicha davlat xizmatlari (keyingi o‘rinlar davlat xizmatlari deb ataladi) ko‘rsatish tizimini yanada takomillashtirishning asosiy yo‘nalishlari hisoblansin:

davlat xizmatlari ko‘rsatishda yuridik yoki jismoniy shaxslarning bevosita ishtirok etishini talab qiladigan tartibotlar sonini hamda ularni ko‘rsatish muddatlarini tubdan qisqartirish;

yuridik va jismoniy shaxslardan boshqa davlat organlari va boshqa tashkilotlardan olinadigan hujjatlar va ma‘lumotlar talab qilinishini bekor qilish;

davlat xizmatlari ko‘rsatishda byurokratik to‘siq va g‘ovlarga yo‘l qo‘ymaslik maqsadida davlat organlari va boshqa tashkilotlar o‘rtasida o‘zaro yaqin idoralararo elektron hamkorlik o‘rnatish;

davlat organlari va boshqa tashkilotlar faoliyati samaradorligini, tezkorligini va shaffofligini ta‘minlash, ularning mas‘uliyatini va ijro intizomini kuchaytirish;

O‘zbekiston Respublikasi Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalini (keyingi o‘rinlarda YIDXP deb ataladi) davlat xizmatlari ko‘rsatish uchun yagona axborot maydonchasi sifatida belgilash.

2. Quyidagilar tasdiqlansin va 2018-yil 1-apreldan boshlab amalga kiritilsin:

Oldingi tahrirga qarang.

(2-bandning ikkinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 31-avgustdagi 555-sonli [qaroriga](#) asosan chiqarilgan — Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 31.08.2021-y., 09/21/555/0848-son — 2022-yil 1-yanvardan kuchga kiradi)

Yuridik va jismoniy shaxslarni gaz tarmoqlariga ulash bo‘yicha davlat xizmatlari ko‘rsatishning ma‘muriy reglamenti [2-ilovaga](#) muvofiq;

Yuridik va jismoniy shaxslarni issiqlik ta‘minoti tarmoqlariga ulash bo‘yicha davlat xizmatlari ko‘rsatishning ma‘muriy reglamenti [3-ilovaga](#) muvofiq;

Yuridik va jismoniy shaxslarni suv ta‘minoti va suv chiqarib tashlash tarmoqlariga ulash bo‘yicha davlat xizmatlari ko‘rsatishning ma‘muriy reglamenti [4-ilovaga](#) muvofiq.

3. Belgilansinki, 2018-yil 1-apreldan boshlab ushbu qaror bilan tasdiqlangan ma‘muriy reglamentlarga muvofiq ko‘rsatiladigan davlat xizmatlaridan foydalanish uchun yuridik va jismoniy shaxslar faqat Davlat xizmatlari markazlari yoki YIDXP orqali murojaat qiladilar.

4. “O‘zbekenergo” AJ, “O‘ztransgaz” AJ va O‘zbekiston Respublikasi Uy-joy-kommunal xizmat ko‘rsatish vazirligi va davlat xizmatlari ko‘rsatilishida ishtirok etadigan boshqa davlat organlari:

o‘n kun muddatda davlat xizmatlari ko‘rsatish uchun zarur hujjatlar va boshqa hujjatlarning namunaviy shakllari, blankalari ishlab chiqilishini hamda O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi bilan kelishgan holda tasdiqlanishini;

O‘zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi hamda Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi bilan birgalikda 2018-yil 1-aprelgacha bo‘lgan muddatda hududiy bo‘linmalar, idoraviy mansub tashkilotlar va davlat xizmatlari ko‘rsatilishida ishtirok etadigan boshqa tuzilmalarning YIDXPga ulanishini;

O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi va Savdo-sanoat palatasi bilan birgalikda 2018-yil mobaynida har chorakda kamida bir marta Davlat xizmatlari

markazlarining xodimlari ishtirokida ushbu qaror bilan tasdiqlangan ma'muriy reglamentlarni amalda qo'llashning samaradorligi va natijadorligi darajasini oshirishga yo'naltirilgan o'quv seminarlari tashkil etilishi va o'tkazilishini ta'minlasinlar.

5. O'zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi bilan birgalikda 2018-yil 1-aprelgacha bo'lgan muddatda YIDXPda:

davlat xizmatlari ko'rsatilishining har bir bosqichida yuridik va jismoniy shaxslar murojaatlarining ko'rib chiqilishini kuzatib borish tartibotini;

loyihalash, qurilish-montaj va sozlash-ishga tushirish tashkilotlaridan tijorat takliflarini olish uchun yuridik va jismoniy shaxslarning muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlariga ulanish bo'yicha texnik shartlarini joylashtirishni nazarda tutuvchi tizimni joriy etsin.

6. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, Markaziy bank, Davlat soliq qo'mitasi, Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi davlat xizmatlarini ko'rsatuvchi davlat organlari va boshqa tashkilotlar bilan birgalikda 2018-yil 1-aprelgacha bo'lgan muddatda Yagona billing tizimi orqali real vaqt rejimida elektron shaklda to'lovlar qabul qilinishini hamda davlat xizmatlari ko'rsatilishi uchun to'langan davlat bojlari va yig'imlar summasi hisobi yuritilishini ta'minlasinlar.

7. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi:

davlat organlari va boshqa tashkilotlarning ular tomonidan davlat xizmatlari ko'rsatilishining belgilangan tartibiga rioya etilishi yuzasidan faoliyati ustidan, shu jumladan, YIDXP orqali doimiy nazorat o'rnatsin;

ushbu qaror bilan tasdiqlangan davlat xizmatlarini ko'rsatish bo'yicha ma'muriy reglamentlarning talablarini buzganlik uchun davlat organlari va boshqa tashkilotlar mansabdor shaxslariga nisbatan belgilangan tartibda ma'muriy jazolarni ko'llasin.

8. O'zbekiston Respublikasi Hukumatining [5-ilovaga](#) muvofiq ayrim qarorlari 2018-yil 1-apreldan boshlab o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblansin.

9. Vazirliklar va idoralar bir oy muddatda o'zlari tomonidan qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlarni ushbu qarorga muvofiqlashtirsinlar.

10. Belgilab qo'yilsinki, davlat xizmatlari ko'rsatuvchi davlat organlari va boshqa tashkilotlar, O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi rahbarlari ushbu qarorda nazarda tutilgan vazifalarning o'z vaqtida, to'liq va sifatli bajarilishi uchun shaxsan javob beradilar.

11. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining birinchi o'rinbosari — "O'zbekiston temir yo'llari" aksiyadorlik jamiyati boshqaruvi raisi A.J. Ramatov, O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining o'rinbosari — "O'zbekneftgaz" AJ boshqaruvi raisi A.S. Sultanov va O'zbekiston Respublikasi adliya vaziri R.K. Davletov zimmasiga yuklansin.

O'zbekiston Respublikasining Bosh vaziri A. ARIPOV

Toshkent sh.,
2018-yil 31-mart,
256-son

Oldingi tahrirga qarang.

(1-ilova O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 31-avgustdagi 555-sonli qaroriga asosan o'z kuchini yo'qotgan — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 31.08.2021-y., 09/21/555/0848-son — 2022-yil 1-yanvardan kuchga kiradi)

Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 31-martdagi 256-son qaroriga
2-ILOVA

Yuridik va jismoniy shaxslarni gaz tarmoqlariga ulash bo'yicha davlat xizmatlari ko'rsatishning

MA'MURIY REGLAMENTI

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Ushbu Reglament yuridik va jismoniy shaxslarni (keyingi o‘rinlarda iste‘molchilar deb ataladi) gaz tarmoqlariga ulash tartibini belgilaydi.

2. Ushbu Reglamentning amal qilishi iste‘molchilarning gaz tarmoqlariga ulanayotgan yangi va qo‘shimcha gaz iste‘moli jihozlariga, shuningdek, gaz ta‘minoti loyihasi va tabiiy gazdan foydalanish hajmlari o‘zgarishiga olib keladigan ulanish nuqtalari, ishlab chiqarish faoliyati turlari o‘zgartirilayotganda tatbiq etiladi.

Ushbu Reglament talablari iste‘molchilarning 1,2 MPa bosimdan yuqori bo‘lgan gaz tarmoqlariga ulanishiga tatbiq etilmaydi.

3. Tabiiy gazni gaz ta‘minoti shartnomasini tuzmasdan yetkazib berish taqiqlanadi.

4. Iste‘molchilarni gaz tarmoqlariga ulash jarayoni quyidagilarni nazarda tutadi:

texnik shartlarni ishlab chiqish;

gaz ta‘minoti loyihasini ishlab chiqish va kelishish;

qurilish-montaj ishlarini amalga oshirish;

tabiiy gazni hisobga olish priborini plombalash;

sozlash-ishga tushirish ishlarini amalga oshirish uchun, yiliga 100 000 va undan ortiq kubmetr tabiiy gazdan bitta pribor uchun yoqilg‘i sifatida foydalanuvchi yuridik shaxslar gaz xo‘jaligining mavsumiy va uzoq muddat ishlovchi gaz iste‘moli obyektlarini ishga tushirish uchun ruxsatnomalar berish;

gaz ta‘minoti shartnomasini tuzish;

sozlash-ishga tushirish ishlarini amalga oshirish;

tabiiy gazni yetkazib berish.

Oldingi tahrirga qarang.

Gaz ta‘minoti loyihasi mazkur Reglament hamda Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 18-maydagi 370-son qarori bilan tasdiqlangan Loyiha-smeta hujjatlarini kelishish hamda bir vaqtda obyektning zilzilaga bardoshliligi va yong‘in xavfsizligi bo‘yicha loyihaviy yechimlarini ekspertizadan o‘tkazish bo‘yicha davlat xizmatlari ko‘rsatishning **ma‘muriy reglamentiga** asosan binolar, inshootlar va boshqa obyektlar qurilishining loyiha-smeta hujjatlarini ko‘rib chiqish va kelishish jarayoni bilan bir vaqtda kelishilishi mumkin;

(4-band O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 28-noyabrdagi 961-sonli qaroriga asosan o‘ninchi xatboshi bilan to‘ldirilgan — Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 29.11.2019-y., 09/19/961/4092-son)

5. Iste‘molchilarni gaz tarmoqlariga ulash jarayonini amalga oshirishda:

a) hududiy gaz ta‘minoti korxonasi (keyingi o‘rinlarda HGK deb ataladi):

texnik shartlarni ishlab chiqadi;

loyihalash, qurilish-montaj va sozlash-ishga tushirish ishlarini amalga oshiradi (iste‘molchining ixtiyoriga ko‘ra);

Oldingi tahrirga qarang.

gaz ta‘minoti loyihasini, shu jumladan binolar, inshootlar va boshqa obyektlar qurilishining loyiha-smeta hujjatlarini ko‘rib chiqish va kelishish jarayoni bilan bir vaqtda texnik shartlarga muvofiqligini ko‘rib chiqadi va kelishadi, agar loyihani ishlab chiquvchi loyihalash tashkiloti bo‘lsa;

(5-bandning beshinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 28-noyabrdagi 961-sonli qarori tahririda — Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 29.11.2019-y., 09/19/961/4092-son)

tabiiy gazni hisobga olish priborini plombalashda ishtirok etadi;

gaz ta‘minoti shartnomasini tuzadi;

tabiiy gazni yetkazib berishni amalga oshiradi;

b) loyihalash, qurilish-montaj va sozlash-ishga tushirish tashkilotlari loyihalash, qurilish-montaj va sozlash-ishga tushirish ishlarini amalga oshiradi (iste‘molchining ixtiyoriga ko‘ra);

v) O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Majburiy ijro byurosi (keyingi o‘rinlarda Byuro deb ataladi) tabiiy gazni hisobga olish priborini plombalashda ishtirok etadi;

g) O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasini huzuridagi Yer qanunini geologik o‘rganish, sanoatda, konchilikda va kommunal-maishiy sektorda ishlarning bexatar olib borilishini nazorat qilish davlat inspeksiyasi (keyingi o‘rinlarda “Sanoatgeokontekstnazorat” DI deb ataladi) sozlash-ishga tushirish ishlarini amalga oshirish uchun, yiliga 100 000 va undan ortiq kubmetr tabiiy gazdan bitta pribor uchun yoqilg‘i sifatida foydalanuvchi yuridik shaxslarning gaz xo‘jaligining mavsumiy va uzoq muddat ishlovchi gaz iste‘moli obyektlarini ishga tushirish uchun ruxsatnomalar beradi.

6. Davlat xizmatlari markazlari, Byuro, HGK, loyihalash, qurilish-montaj va sozlash-ishga tushirish tashkilotlari o‘rtasida axborot almashinuvi elektron raqamli imzoni (keyingi o‘rinlarda ERI deb ataladi) majburiy tartibda qo‘llash orqali faqat idoralararo elektron o‘zaro bog‘lanish yordamida amalga oshiriladi.

7. Iste‘molchilarni gaz tarmoqlariga ulash ushbu Reglamentga **1-ilovaga** muvofiq sxema bo‘yicha amalga oshiriladi.

2-bob. Davlat xizmatlari ko‘rsatish tartibi

1-§. Murojaatlarni shakllantirish va yuborish

8. Iste‘molchilar gaz tarmoqlariga ulanish uchun Davlat xizmatlari markazlariga o‘zi kelib murojaat etadi yoki O‘zbekiston Respublikasi Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalida (keyingi o‘rinlarda YIDXP deb ataladi) davlat xizmatidan elektron tarzda foydalanish uchun ro‘yxatdan o‘tadi.

9. O‘zi kelib murojaat etganda Davlat xizmatlari markazi xodimi iste‘molchi nomidan, YIDXP orqali murojaat qilinganda esa iste‘molchi mustaqil ravishda ushbu Reglamentga **2-ilovaga** muvofiq davlat xizmatidan foydalanish uchun so‘rovnomani elektron tarzda to‘ldiradi.

Zarur hollarda so‘rovnomada ulanish nazarda tutilayotgan gaz kommunikatsiyalari balansda saqlovchilarining roziligi mavjudligi haqida ma‘lumotlar ko‘rsatiladi.

Iste‘molchilardan ushbu badda ko‘rsatilmagan ma‘lumotlarni, shuningdek, boshqa hujjatlarni taqdim etishni talab qilish qat‘iyan taqiqlanadi.

Oldingi tahrirga qarang.

10. Iste‘molchi zarur ma‘lumotlarni rasmiylashtirgandan va so‘rovnomaga kiritgandan so‘ng uni o‘z ERI bilan tasdiqlaydi.

O‘zi kelib murojaat etgan taqdirda, so‘rovnomani ERI bilan tasdiqlash imkoniyati bo‘lmagan hollarda tegishli imzolar identifikatsiya qilishning boshqa vositalari (daktiloskopiya, elektron imzo va boshqalar) bilan ham tasdiqlanishi mumkin.

(10-band O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 2-iyuldagi 548-sonli qarori tahririda — Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 02.07.2019-y., 09/19/548/3362-son)

Oldingi tahrirga qarang.

11. Davlat xizmatlarini ko‘rsatish uchun bazaviy hisoblash miqdorining 10 foizi miqdorida yig‘im undiriladi, gaz ta‘minoti loyihasi binolar, inshootlar va boshqa obyektlar qurilishining loyihasmeta hujjatlarini ko‘rib chiqish va kelishish jarayoni bilan bir vaqtda kelishiladigan holatlar bundan mustasno.

(11-bandning birinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 28-noyabrdagi 961-sonli qarori tahririda — Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 29.11.2019-y., 09/19/961/4092-son)

Oldingi tahrirga qarang.

Davlat xizmati ko‘rsatilishi uchun YIDXP orqali murojaat etilganda, ushbu bandning **birinchi xatboshida** ko‘rsatilgan yig‘im summasining 90 foizi undiriladi.

(11-band O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 2-iyuldagi 548-sonli qaroriga asosan ikkinchi xatboshi bilan to‘ldirilgan — Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 02.07.2019-y., 09/19/548/3362-son)

Davlat xizmatlarini ko‘rsatish uchun yig‘im to‘langanligini tasdiqlash axborot-kommunikatsiya tizimlari orqali amalga oshiriladi.

Oldingi tahrirga qarang.

12. Yig‘imlar summasi quyidagi tartibda taqsimlanadi:

- a) Davlat xizmatlari markazlariga o‘zi kelib murojaat etganda:
20 foizi — O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi budjetdan tashqari jamg‘armasining shaxsiy hisob raqamiga o‘tkaziladi;
qolgan mablag‘lar to‘liq HGKning bank hisob raqamlariga o‘tkaziladi;
- b) YIDXP orqali murojaat etilganda:
10 foizi — O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi budjetdan tashqari jamg‘armasining shaxsiy hisob raqamiga o‘tkaziladi;

Oldingi tahrirga qarang.

11,25 foizi — O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Loyiha boshqaruvi milliy agentligi qoshidagi Elektron hukumat va raqamli iqtisodiyot loyihalarini boshqarish markazi” DUKning hisob raqamiga;

(12-band “b” kichik bandining uchinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 14-yanvardagi 24-sonli qarori tahririda — Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 15.01.2020-y., 09/20/24/0053-son)

qolgan mablag‘lar to‘liq HGKning bank hisob raqamlariga o‘tkaziladi.

(12-band O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 2-iyuldagi 548-sonli qarori tahririda — Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 02.07.2019-y., 09/19/548/3362-son)

Oldingi tahrirga qarang.

13. So‘rovnomada noto‘g‘ri ma’lumotlar ko‘rsatilishi, shuningdek, davlat xizmatlarini ko‘rsatish uchun yig‘imni to‘lamaslik davlat xizmati ko‘rsatishni rad etish uchun asos hisoblanadi.

(13-bandning birinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 2-iyuldagi 548-sonli qarori tahririda — Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 02.07.2019-y., 09/19/548/3362-son)

Davlat xizmatlarini ko‘rsatishni boshqa asoslar bo‘yicha rad etish qat‘iyan taqiqlanadi.

14. Iste‘molchi davlat xizmatlaridan foydalanishdan u ko‘rsatilishining har qanday bosqichida bosh tortish huquqiga ega.

Iste‘molchi davlat xizmatlaridan foydalanishdan bosh tortganda uning so‘rovnomasi ko‘rmasdan qoldiriladi. Bunda, to‘langan yig‘im summasi qaytarilmaydi.

15. O‘zi kelib murojaat etganda Davlat xizmatlari markazlari so‘rovnoma to‘ldirilgan vaqtdan boshlab bir soat mobaynida uni HGKga texnik shartlarni ishlab chiqish uchun yuboradi.

YIDXP orqali murojaat qilinganda esa so‘rovnoma avtomatik tarzda HGKga texnik shartlarni ishlab chiqish uchun yuboriladi.

2-§. Texnik shartlarni ishlab chiqish va berish, shuningdek, tijorat takliflari va shartnomalar loyihalarini taqdim etish

16. HGK so‘rovnoma tushganidan so‘ng uch ish kuni mobaynida texnik shartlarni ishlab chiqadi va elektron shaklda Davlat xizmatlari markaziga (o‘zi kelib murojaat etganda) yoki iste‘molchiga YIDXP orqali (elektron shaklda murojaat qilinganda) yuboradi yoxud ularni ishlab chiqishni rad etadi.

HGK loyihalash, qurilish-montaj va sozlash-ishga tushirish ishlarini amalga oshirish bo‘yicha o‘zining tijorat takliflarini hamda shartnomalari loyihalarini ham yuborish huquqiga ega.

O‘zi kelib murojaat etganda Davlat xizmatlari markazi texnik shartlar hamda HGKning loyihalash, qurilish-montaj va sozlash-ishga tushirish ishlarini amalga oshirish bo‘yicha tijorat takliflari va shartnomalar loyihalari tushganidan so‘ng bir soat mobaynida texnik shartlarga o‘zining muhrini bosib, iste‘molchiga beradi.

17. Iste‘molchining obykti joylashgan hududda quvvati HGK tomonidan iste‘molchiga tabiiy gazni yetkazib berishni ta‘minlaydigan gaz taqsimoti tarmog‘ining mavjud emasligi texnik shartlarni ishlab chiqishni rad etish uchun asos bo‘ladi.

Boshqa asoslarga ko‘ra texnik shartlarni ishlab chiqishni rad etish qat‘iyan taqiqlanadi.

18. Ishlab chiqilgan texnik shartlar iste‘molchining aloqa qilinadigan ma’lumotlari ilova qilingan holda loyihalash, qurilish-montaj va sozlash-ishga tushirish ishlarini amalga oshirish bo‘yicha o‘zlarining tijorat takliflari va shartnomalar loyihalarini taqdim etishi maqsadida loyihalash, qurilish-montaj va sozlash-ishga tushirish tashkilotlarining tanishishi uchun YIDXPda joylashtiriladi.

3-§. Iste'molchilarni gaz tarmoqlariga ulash

19. Gaz ta'minoti loyihalasini ishlab chiqish uchun iste'molchilar HGK yoki boshqa loyihalash tashkilotlari bilan loyihalash ishlarini bajarish bo'yicha shartnomalar tuzish huquqiga ega.

20. Loyihalash ishlari loyihalash ishlarini amalga oshirish bo'yicha shartnomalarda belgilangan muddatlarda amalga oshiriladi.

Oldingi tahrirga qarang.

21. Loyihalash tashkiloti loyihalash ishlarini amalga oshirganidan so'ng YIDXPda ushbu Reglamentga 3-ilova muvofiq shaklda so'rovnomanini to'ldiradi va uni o'zining ERI bilan tasdiqlaydi, gaz ta'minoti loyihasi binolar, inshootlar va boshqa obyektlar qurilishining loyiha-smeta hujjatlarini ko'rib chiqish va kelishish jarayoni bilan bir vaqtda kelishiladigan holatlar bundan mustasno.

(21-bandning birinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 28-noyabrdagi 961-sonli qarori tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 29.11.2019-y., 09/19/961/4092-son)

So'rovnomaga gaz ta'minoti loyihasi elektron shaklda ilova qilinadi.

Loyihalash tashkilotidan ushbu bandeda ko'rsatilmagan hujjatlar va ma'lumotlarni taqdim etishni talab etish qat'iyani taqiqlanadi.

So'rovnoma gaz ta'minoti loyihalasini kelishish uchun HGKga avtomatik tarzda yuboriladi.

22. Gaz ta'minoti loyihasi HGK tomonidan ishlab chiqilgan hollarda gaz ta'minoti loyihalasini kelishish talab etilmaydi.

Oldingi tahrirga qarang.

23. HGK ushbu Reglamentning 3-ilovasiga, shu jumladan Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 18-maydagi 370-son qarori bilan tasdiqlangan Loyiha-smeta hujjatlarini kelishish hamda bir vaqtda obyektning zilzilaga bardoshlilik va yong'in xavfsizligi bo'yicha loyihaviy yechimlarini ekspertizadan o'tkazish bo'yicha davlat xizmatlari ko'rsatishning ma'muriy reglamentining 2-ilovasiga muvofiq shakldagi so'rovnoma tushganidan so'ng uch ish kuni davomida gaz ta'minoti loyihalasini kelishadi yoki kelishishni rad etadi.

(23-bandning birinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 28-noyabrdagi 961-sonli qarori tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 29.11.2019-y., 09/19/961/4092-son)

Gaz ta'minoti loyihalasini kelishish uni HGKning ERI bilan tasdiqlash orqali amalga oshiriladi.

24. Gaz ta'minoti loyihalasining texnik shartlar talablaridan chetga chiqishi gaz ta'minoti loyihalasini kelishishni rad etishga asos bo'ladi.

Boshqa sabablarga ko'ra gaz ta'minoti loyihalasini kelishishni rad etish qat'iyani taqiqlanadi.

Gaz ta'minoti loyihalasini kelishishni rad etish uchun asos bo'lgan sabablar loyihalash tashkiloti tomonidan bartaraf etilgan taqdirda, qayta kelishish takroriy so'rovnoma tushganidan so'ng bir ish kundan oshmagan muddatda amalga oshiriladi.

Gaz ta'minoti loyihalasini takroran ko'rib chiqishda HGK tomonidan avvalgi rad etish asoslarida bayon etilmagan sabablarning keltirilishiga yo'l qo'yilmaydi, avval ko'rsatilgan sabablar bartaraf etilganligini tasdiqlovchi ma'lumotlar bilan bog'liq rad etish sabablari keltirilishi bundan mustasno.

Oldingi tahrirga qarang.

25. Kelishilgan gaz ta'minoti loyihasi u kelishilgan kunda elektron shaklda HGK tomonidan loyihalash tashkilotiga gaz ta'minoti loyihasi binolar, inshootlar va boshqa obyektlar qurilishining loyiha-smeta hujjatlarini ko'rib chiqish va kelishish jarayoni bilan bir vaqtda kelishiladigan hollarda loyiha tashkilotiga davlat xizmatlari markazi (o'zi kelib murojaat qilgan taqdirda) yoki YIDXP orqali yuboriladi.

(25-band O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 28-noyabrdagi 961-sonli qarori tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 29.11.2019-y., 09/19/961/4092-son)

26. Gaz tarmoqlariga ulash bo'yicha qurilish-montaj ishlarini amalga oshirish uchun iste'molchilar HGK yoki boshqa qurilish-montaj tashkilotlari bilan tegishli shartnomalar tuzish huquqiga ega.

27. Qurilish-montaj ishlari qurilish-montaj ishlarini o'tkazish bo'yicha shartnomalarda belgilangan muddatlarda amalga oshiriladi.

4-§. Tabiiy gazni hisobga olish priborini plombalash, gaz ta'minoti shartnomasini tuzish va tabiiy gazni yetkazib berish

28. Tabiiy gazni hisobga olish priborini plombalash va gaz ta'minoti shartnomasini tuzish gaz tarmoqlariga ulanish bo'yicha qurilish-montaj ishlari bajarilgandan so'ng amalga oshiriladi.

29. O'zi kelib murojaat etganda Davlat xizmatlari markazi xodimi iste'molchi nomidan, YIDXP orqali murojaat qilinganda esa iste'molchi mustaqil ravishda ushbu Reglamentga 4-ilovaga muvofiq tabiiy gazni hisobga olish priborini plombalash va gaz ta'minoti shartnomasini tuzish uchun so'rovnomaning elektron tarzda to'ldiradi.

Iste'molchilardan ushbu bandda ko'rsatilmagan ma'lumotlarni, shuningdek, boshqa hujjatlarni taqdim etishni talab qilish qat'iy taqiqlanadi.

30. Iste'molchi zarur ma'lumotlarni rasmiylashtirgandan va so'rovnomaga kiritgandan so'ng uni o'z ERI bilan tasdiqlaydi.

Oldingi tahrirga qarang.

O'zi kelib murojaat etgan taqdirda, so'rovnomaning ERI bilan tasdiqlash imkoniyati bo'lmagan hollarda tegishli imzolar identifikatsiya qilishning boshqa vositalari (daktiloskopiya, elektron imzo va boshqalar) bilan ham tasdiqlanishi mumkin.

(30-band O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 2-iyuldagi 548-sonli qaroriga asosan ikkinchi xatboshi bilan to'ldirilgan — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 02.07.2019-y., 09/19/548/3362-son)

31. O'zi kelib murojaat etganda Davlat xizmatlari markazlari so'rovnoma to'ldirilgan vaqtdan boshlab bir soat mobaynida uni HGK va Byuroga tabiiy gazni hisobga olish priborini plombalash va gaz ta'minoti shartnomasini tuzish uchun yuboradi.

YIDXP orqali murojaat qilinganda so'rovnoma avtomatik tarzda HGK va Byuroga tabiiy gazni hisobga olish priborini plombalash va gaz ta'minoti shartnomasini tuzish uchun yuboriladi.

Oldingi tahrirga qarang.

32. HGK va Byuro so'rovnoma tushgan kundan boshlab ikki ish kuni mobaynida joyning o'ziga chiqib, tabiiy gazni hisobga olish priborini plombalash ishlarini amalga oshiradi va bu haqda uch nusxada dalolatnoma tuzadi.

Tabiiy gazni hisobga olish priborini plombalash qo'shma tasdiqlangan jadvallar asosida oldindan belgilangan vaqtda amalga oshiriladi.

(32-band O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 2-iyuldagi 548-sonli qarori tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 02.07.2019-y., 09/19/548/3362-son)

Oldingi tahrirga qarang.

33. Tabiiy gazni hisobga olish pribori plombalangan kunning o'zida HGK rasmiylashtirilgan gaz ta'minoti shartnomasini, Byuro tabiiy gazni hisobga olish priborini plombalash o'tkazilganligi to'g'risidagi dalolatnomaning bir nusxasini elektron shaklda Davlat xizmatlari markaziga (o'zi kelib murojaat etganda) yoki iste'molchiga YIDXP orqali (elektron shaklda murojaat qilinganda) yuboradi.

(33-band O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 2-iyuldagi 548-sonli qarori tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 02.07.2019-y., 09/19/548/3362-son)

Oldingi tahrirga qarang.

34. Davlat xizmatlari markazi rasmiylashtirilgan gaz ta'minoti shartnomasi va plombalash o'tkazilganligi to'g'risidagi dalolatnoma kelib tushgandan so'ng bir soat ichida bu haqida iste'molchini axborot-kommunikatsiya tizimlari orqali xabardor qiladi.

(34-band O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 2-iyuldagi 548-sonli qarori tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 02.07.2019-y., 09/19/548/3362-son)

35. Iste'molchi rasmiylashtirilgan gaz ta'minoti shartnomasi tushgandan so'ng besh ish kuni mobaynida uni o'zining ERI bilan tasdiqlaydi.

Oldingi tahrirga qarang.

Shartnomani ERI bilan tasdiqlash imkoniyati bo'lmagan hollarda tegishli imzolar identifikatsiya qilishning boshqa vositalari (daktiloskopiya, elektron imzo va boshqalar) bilan ham tasdiqlanishi mumkin.

(35-band O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 2-iyuldagi 548-sonli qaroriga asosan ikkinchi xatboshi bilan to'ldirilgan — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 02.07.2019-y., 09/19/548/3362-son)

Iste'molchi tomonidan tasdiqlangan gaz ta'minoti shartnomasi Davlat xizmatlari markazi tomonidan (o'zi kelib murojaat etganda) HGKga yoki iste'molchi tomonidan YIDXP orqali (elektron shaklda murojaat qilinganda) yuboriladi.

36. Iste'molchi gaz ta'minoti shartnomasini tasdiqlashdan bosh tortganda yoki u belgilangan muddatda yuborilmaganda gaz ta'minoti shartnomasi tuzilmagan hisoblanadi.

37. Tabiiy gazni yetkazib berish HGK tomonidan quyidagi tartibda amalga oshiriladi: qonun hujjatlarida oldindan to'lovni amalga oshirishi nazarda tutilgan iste'molchilar uchun — iste'molchi tomonidan oldindan to'lov amalga oshirilgan kuni;

qonun hujjatlarida oldindan to'lovni amalga oshirishi nazarda tutilmagan iste'molchilar uchun — iste'molchi tomonidan tasdiqlangan shartnoma olingan kuni.

38. Gaz iste'moli jihozlarni sozlash-ishga tushirish ishlari hamda ulash qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

5-§. Sozlash-ishga tushirish ishlarini amalga oshirish uchun, yiliga 100 000 va undan ortiq kubmetr tabiiy gazdan bitta pribor uchun yoqilg'i sifatida foydalanuvchi yuridik shaxslar gaz xo'jaligining mavsumiy va uzoq muddat ishlovchi gaz iste'moli obyektlarini ishga tushirish uchun ruxsatnomalar berish

39. Yiliga 100 000 gacha kubmetr tabiiy gazdan bitta pribor uchun yoqilg'i sifatida foydalanuvchi yuridik shaxslar gaz xo'jaligining mavsumiy va uzoq muddat ishlovchi gaz iste'moli obyektlarini ishga tushirish uchun, sozlash-ishga tushirish ishlarini amalga oshirish uchun ruxsatnomalar olish talab etilmaydi.

40. Sozlash-ishga tushirish ishlarini amalga oshirish uchun, yiliga 100 000 va undan ortiq kubmetr tabiiy gazdan bitta pribor uchun yoqilg'i sifatida foydalanuvchi yuridik shaxslar gaz xo'jaligining mavsumiy va uzoq muddat ishlovchi gaz iste'moli obyektlarini ishga tushirish uchun ruxsatnomalar "Sanoatgeokontexnazorat" DI tomonidan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda beriladi.

3-bob. Yakunlovchi qoidalar

41. Texnik shartlarni, shu jumladan, qo'shimcha texnik shartlarni ishlab chiqish, berish, gaz ta'minoti loyihalarini kelishish va tabiiy gazni hisobga olish priborini plombalash to'lov undirilmagan holda amalga oshiriladi, davlat xizmatlari ko'rsatilganligi uchun yig'im undirilishi bundan mustasno.

42. Davlat xizmatlari markazlari, HGK, "Sanoatgeokontexnazorat" DI, Byuro, loyihalash, qurilish-montaj va ishga tushirish-sozlash tashkilotlari o'z faoliyatini amalga oshirishi natijasida olingan iste'molchi haqidagi ma'lumotlarning maxfiyligini ta'minlashi kerak.

43. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi, uning hududiy boshqarmalari va Davlat xizmatlari markazlari ushbu Reglament talablari ijrosi bo'yicha davlat organlari va boshqa tashkilotlarning faoliyati ustidan, shu jumladan, YIDXP orqali, doimiy nazoratni va monitoringni amalga oshiradilar.

44. Iste'molchi davlat organlari va boshqa tashkilotlar xodimlarining xatti-harakatlari yuzasidan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda shikoyat qilishi mumkin.

45. Ushbu Reglament talablari buzilishida aybdor bo'lgan shaxslar qonun hujjatlarida belgilangan tartibda javob beradilar.

Yuridik va jismoniy shaxslarni gaz tarmoqlariga ulash

SXEMASI

Oldingi tahrirga qarang.

Bosqichlar	Subyektlar	Tadbirlar	Bajarish muddatlari
I. Texnik shartlarni ishlab chiqish va berish, shuningdek, tijorat takliflari va shartnomalar loyihalarini taqdim etish			
1-bosqich	Iste'molchi	1. Gaz tarmoqlariga ulanish uchun Davlat xizmatlari markaziga o'zi kelib murojaat qilish yoki YIDXPda ro'yxatdan o'tish. 2. Davlat xizmatini ko'rsatish uchun yig'im to'lash.	1. Xohishiga ko'ra 2. Murojaat qilinganda
2-bosqich	1. Davlat xizmatlari markazi 2. YIDXP	Texnik shartlarni ishlab chiqish uchun so'rovnomani HGKga yuborish.	1. 1 soat mobaynida 2. Avtomatik tarzda
3-bosqich	HGK	1. Texnik shartlarni ishlab chiqish va Davlat xizmatlari markaziga (o'zi kelib murojaat etganda) yoki iste'molchiga YIDXP orqali (elektron tarzda murojaat qilinganda) yuborish. 2. Loyihalash, qurilish-montaj va sozlash-ishga tushirish ishlarini amalga oshirish bo'yicha o'zining tijorat takliflarini va shartnomalar loyihalarini berish huquqi.	3 ish kuni mobaynida
4-bosqich	Davlat xizmatlari markazi	Texnik shartlarni, shuningdek HGKning loyihalash, qurilish-montaj va sozlash-ishga tushirish ishlarini amalga oshirish bo'yicha tijorat takliflari va shartnomalar loyihalarini texnik shartlarga o'zining muhrini bosib, iste'molchiga berish.	1 soatmobaynida
II. Iste'molchilarni gaz tarmoqlariga ulash			
1-bosqich	Iste'molchi	Gaz ta'minoti loyahasini ishlab chiqish uchun HGK yoki boshqa loyihalash tashkilotlari bilan loyihalash ishlarini bajarish bo'yicha shartnomalar tuzish.	Xohishiga ko'ra (<i>texnik shartlarni olganidan so'ng</i>)
2-bosqich	HGK yoki boshqa loyihalash tashkilotlari	Gaz tarmoqlariga ulash bo'yicha loyihalash ishlarini amalga oshirish.	Shartnomalarda belgilangan muddatlarda

3-bosqich	Loyihalash tashkiloti	Gaz ta'minoti loyihasini kelishish uchun YIDXPda so'rovnomani to'ldirish.	Xohishiga ko'ra (<i>loyihalash ishlari amalga oshiril-ganidan so'ng</i>)
-----------	-----------------------	---------------------------------------------------------------------------	-------------------------------------------------------------------------------

4-bosqich	YIDXP	So'rovnomani gaz ta'minoti loyihasini kelishish uchun HGKga yuborish.	Avtomatik tarzda
-----------	-------	-----------------------------------------------------------------------	------------------

5-bosqich	HGK	1. Gaz ta'minoti loyihasini ERI bilan tasdiqlash orqali kelishish. 2. Kelishilgan gaz ta'minoti loyihasini YIDXP orqali loyihalash tashkilotiga yuborish.	3 ish kuni mobaynida
-----------	-----	--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------	----------------------

6-bosqich	Iste'molchi	HGK yoki boshqa qurilish-montaj tashkilotlari bilan qurilish-montaj ishlarini amalga oshirish bo'yicha shartnoma tuzish.	Xohishiga ko'ra (<i>loyiha kelishilgandan so'ng</i>)
-----------	-------------	--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------	-----------------------------------------------------------

7-bosqich	HGK yoki boshqa qurilish-montaj tashkilotlari	Gaz tarmoqlariga ulash bo'yicha qurilish-montaj ishlarini amalga oshirish.	Shartnomalarda belgilangan muddatlarda
-----------	-----------------------------------------------	----------------------------------------------------------------------------	----------------------------------------

III. Tabiiy gazni hisobga olish priborini plombalash, gaz ta'minoti shartnomasini tuzish va tabiiy gazni yetkazib berish

1-bosqich	Iste'molchi	Tabiiy gazni hisobga olish priborini plombalash, gaz ta'minoti shartnomasini tuzish uchun Davlat xizmatlari markaziga o'zi kelib yoki YIDXP orqali murojaa qilish.	Xohishiga ko'ra (<i>qurilish-montaj ishlari tugatil-ganidan so'ng</i>)
-----------	-------------	--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------	-----------------------------------------------------------------------------

2-bosqich	1. Davlat xizmatlari markazi 2. IDXYaP	Tabiiy gazni hisobga olish priborini plombalash, gaz ta'minoti shartnomasini tuzish uchun so'rovnomani HGK va Byuroga yuborish.	1. 1 soat mobaynida 2. Avtomatik tarzda
-----------	-------------------------------------------	---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------	--------------------------------------------

3-bosqich	1. HGK va Byuro 2. HGK	1. Tabiiy gazni hisobga olish priborini joyning o'ziga chiqib plombalash. 2. Davlat xizmatlari markaziga (o'zi kelib murojaat etganda) yoki iste'molchiga YIDXP orqali (elektron shaklda murojaat qilinganda) rasmiylashtirilgan va plombalanganligi to'g'risidagi	2 ish kuni mobaynida
-----------	---------------------------	-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------	----------------------

		ma'lumotlar ko'rsatilgan gaz ta'minoti shartnomasini yuborish.	
4-bosqich	Davlat xizmatlari markazi	Iste'molchini gaz ta'minoti shartnomasi rasmiylashtirilganligi to'g'risida axborot-kommunikatsiya tizimlari orqali xabardor qilish.	1 soat mobaynida
5-bosqich	Iste'molchi	1. Rasmiylashtirilgan gaz ta'minoti shartnomasini tasdiqlash. 2. Tasdiqlangan gaz ta'minoti shartnomasini HGKga Davlat xizmatlari markazi tomonidan (o'zi kelib murojaat etganda) yoki iste'molchi tomonidan YIDXP orqali (elektron shaklda murojaat qilinganda) yuborish.	5 ish kuni mobaynida
6-bosqich	HGK	1. Qonun hujjatlarida to'lovni oldindan amalga oshirishi nazarda tutilgan iste'molchilar uchun tabiiy gazni yetkazib berish. 2. Qonun hujjatlarida to'lovni oldindan amalga oshirishi nazarda tutilmagan iste'molchilar uchun tabiiy gazni yetkazib berish	1. Oldindan to'lov amalga oshirilgan kuni 2. Iste'molchi tomonidan tasdiqlangan shartnoma olingan kuni

IV. Sozlash-ishga tushirish ishlarini amalga oshirish uchun, yiliga 100 000 va undan ortiq kubmetr tabiiy gazdan bitta pribor uchun yoqilg'i sifatida foydalanuvchi yuridik shaxslar gaz xo'jaligining mavsumiy va uzoq muddat ishlovchi gaz iste'moli obyektlarini ishga tushirish uchun ruxsatnomalar berish

1-bosqich	"Sanoatgeokontexnazorat" DI	Sozlash-ishga tushirish ishlarini amalga oshirish uchun, yiliga 100 000 va undan ortiq kubmetr tabiiy gazdan bitta pribor uchun yoqilg'i sifatida foydalanuvchi yuridik shaxslar gaz xo'jaligining mavsumiy va uzoq muddat ishlovchi gaz iste'moli obyektlarini ishga tushirish uchun ruxsatnomani qonun hujjatlarida belgilangan tartibda berish.	Belgilangan muddatlarda
-----------	--------------------------------	----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------	-------------------------

(1-ilova O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 2-iyuldagi 548-sonli qarori tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 02.07.2019-y., 09/19/548/3362-son)

Yuridik va jismoniy shaxslarni gaz tarmoqlariga ulash bo'yicha davlat xizmatlari ko'rsatishning ma'muriy reglamentiga
2-ILOVA

Oldingi tahrirga qarang.

(sana)

(raqam)

**Gaz tarmoqlariga ulash bo'yicha davlat xizmatlaridan foydalanish uchun
SO'ROVNOMA**

I. (jismoniy) Iste'molchi — jismoniy shaxs to'g'risida ma'lumot:

1. F.I.O.:	
3. STIR:	
4. manzili:	
6. telefon raqami:	
7. elektron pochta manzili:	

I. (yuridik) Iste'molchi — yuridik shaxs to'g'risida ma'lumot:

1. to'liq nomi:	
3. STIR:	
11. telefon raqami:	
12. elektron pochta manzili:	

II. Ulanayotgan obyekt to'g'risida ma'lumot:

1. o'rnatiladigan gaz iste'moli jihozlari turi:	
2. tabiiy gaz iste'moli hisobi:	
3. o'rnatiladigan gaz iste'moli jihozlari soni:	
4. ulanadigan obyekt joylashuvi (indeks, manzil, mo'ljal):	
5. tabiiy gazdan foydalanish davri:	
6. xizmat turi:	yangi ulanish
	gaz iste'moli jihozlarini o'zgartirish
	qo'shimcha gaz iste'moli jihozlarini ulash
	ulanish nuqtalarini o'zgartirish
	ishlab chiqarish faoliyati turlarini o'zgartirish

III. Avval ulanganligi to'g'risidagi ma'lumotlar:

1. gaz ta'minoti shartnomasi tuzilgan sanasi va raqami:	
---------------------------------------------------------	--

(ulangan bo'lsa to'ldiriladi)

IV. Rozilik to'g'risida ma'lumot:

T/r	Gaz kommunikatsiyalarini balansda saqllovchilar — yuridik shaxslarning nomi, gaz kommunikatsiyalarini balansda saqllovchilar — jismoniy shaxslarning F.I.O.	Raqam	Sana
1.			

Berilayotgan texnik shartlardan loyihalash, qurilish-montaj va sozlash-ishga tushirish tashkilotlari kelgusida loyihalash, qurilish-montaj va sozlash-ishga tushirish ishlarini amalga oshirishda o'z tijorat takliflarini berish maqsadida tanishishi uchun texnik shartlarning Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalida joylashtirilishiga iste'molchining roziligi:

roziman	rozi emasman
---------	--------------

(2-ilova O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 2-iyuldagi 548-sonli qarori tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 02.07.2019-y., 09/19/548/3362-son)

Yuridik va jismoniy shaxslarni gaz tarmoqlariga ulash bo'yicha davlat xizmatlari ko'rsatishning ma'muriy reglamentiga
3-ILOVA

(sana)

(raqam)

**Gaz ta'minoti loyahasini hududiy gaz ta'minoti korxonasi bilan kelishish uchun
SO'ROVNOMA**

I. Kelishilayotgan gaz ta'minoti loyihasi to'g'risida ma'lumot:

1. gaz ta'minoti loyahasining nomi:	
2. loyiha tashkilotining nomi:	

3. loyiha tashkilotining STIR:	
4. loyiha tashkilotining yuridik manzili:	

II. Ilova qilinadigan hujjatlar:

1. gaz ta'minoti loyihasi:	
----------------------------	--

Loyihalash tashkilotining ERI

Yuridik va jismoniy shaxslarni gaz tarmoqlariga ulash bo'yicha davlat xizmatlari ko'rsatishning ma'muriy
reglamentiga
4-ILOVA

Oldingi tahrirga qarang.

(sana)

(raqam)

Tabiiy gazni hisobga olish priborini plombalash va gaz ta'minoti shartnomasini tuzish uchun SO'ROVNOMA

Tabiiy gazni hisobga olish pribori to'g'risida ma'lumotlar:

1. tabiiy gazni hisobga olish pribori pasporti raqami:	
2. tabiiy gazni hisobga olish priborining muvofiqlik sertifikatini raqami:	
3. tabiiy gazni hisobga olish priborining oxirgi marta qiyoslashdan o'tkazilganligi sanasi:	

(4-ilova O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 2-iyuldagi 548-sonli qarori tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 02.07.2019-y., 09/19/548/3362-son)

Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 31-martdagi 256-son qaroriga
3-ILOVA

Yuridik va jismoniy shaxslarni issiqlik ta'minoti tarmoqlariga ulash bo'yicha davlat xizmatlari ko'rsatishning

MA'MURIY REGLAMENTI

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Ushbu Reglament yuridik va jismoniy shaxslarni (keyingi o'rinlarda iste'molchilar deb ataladi) issiqlik ta'minoti tarmoqlariga ulash tartibini belgilaydi.

2. Ushbu Reglamentning amal qilishi yangi yoki amaldagi obyektlarda shartnomaviy o'lchamlarga nisbatan issiqlik yuklamasi o'zgarganda (ortganda yoki kamayganda) rekonstruksiya qilinayotgan issiqlikdan foydalanish qurilmalari va issiqlik tarmoqlarini ulashga tatbiq etiladi.

3. Issiqlik energiyasini issiqlik ta'minoti shartnomasini tuzmasdan yetkazib berish taqiqlanadi.

Oldingi tahrirga qarang.

4. Iste'molchilarni issiqlik ta'minoti tarmoqlariga ulash jarayoni quyidagilarni nazarda tutadi:

texnik shartlarni ishlab chiqish (yangi obyekt qurilishida binoning arxitektura-rejalashtirish topshirig'ini ishlab chiqish doirasida amalga oshiriladi);

issiqlik ta'minoti loyihasini ishlab chiqish va kelishish;

qurilish-montaj va sozlash-ishga tushirish ishlarini amalga oshirish;

issiqlikdan foydalanish qurilmalari va issiqlik tarmoqlarini (keyingi o'rinlarda issiqlik qurilmalari deb ataladi) issiqlik tarmog'iga ulash to'g'risidagi dalolatnomani (keyingi o'rinlarda Dalolatnoma deb ataladi) rasmiylashtirish va tasdiqlash;

(4-band O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 9-iyuldagi 567-sonli qarori tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 11.07.2019-y., 09/19/567/3404-son)

Oldingi tahrirga qarang.

Issiqlik ta'minoti loyihasi mazkur Reglament hamda Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 18-maydagi 370-son qarori bilan tasdiqlangan Loyiha-smeta hujjatlarini kelishish hamda bir vaqtda obyektning zilzilaga bardoshliligi va yong'in xavfsizligi bo'yicha loyihaviy yechimlarini ekspertizadan o'tkazish bo'yicha davlat xizmatlari ko'rsatishning ma'muriy reglamentiga asosan binolar, inshootlar va boshqa obyektlar qurilishining loyiha-smeta hujjatlarini ko'rib chiqish va kelishish jarayoni bilan bir vaqtda kelishilishi mumkin.

(4-band O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 28-noyabrdagi 961-sonli qaroriga asosan oltinchi xatboshi bilan to'ldirilgan — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 29.11.2019-y., 09/19/961/4092-son)

Oldingi tahrirga qarang.

5. Iste'molchilarni issiqlik ta'minoti tarmoqlariga ulash jarayonini amalga oshirishda:

a) Issiqlik ta'minoti korxonasi (keyingi o'rinlarda issiqlik ta'minoti korxonasi deb ataladi) huzuridagi issiqlik tarmoqlariga yuridik va jismoniy shaxslarning issiqlikdan foydalanish qurilmalarini va issiqlik tarmoqlarini ulash xizmatlarini ko'rsatish xizmati:

texnik shartlarni ishlab chiqadi;

Oldingi tahrirga qarang.

issiqlik ta'minoti loyihasini, shu jumladan binolar, inshootlar va boshqa obyektlar qurilishining loyiha-smeta hujjatlarini ko'rib chiqish va kelishish jarayoni bilan bir vaqtda texnik shartlarga muvofiqligini ko'rib chiqadi va kelishadi, agar loyihani ishlab chiquvchi loyihalash tashkiloti bo'lsa;

(5-bandning to'rtinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 28-noyabrdagi 961-sonli qarori tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 29.11.2019-y., 09/19/961/4092-son)

qurilish-montaj va ishga tushirish-sozlash ishlarini amalga oshiradi (iste'molchi manfaatdor bo'lganda);

Dalolatnomani rasmiylashtiradi va tasdiqlaydi;

b) loyihalash, qurilish-montaj va ishga tushirish-sozlash tashkilotlari loyihalash, qurilish-montaj va ishga tushirish-sozlash ishlarini amalga oshiradi (iste'molchi manfaatdor bo'lganda);

v) O'zbekiston Respublikasi Energetika vazirligi huzuridagi Elektr energetikada nazorat inspeksiyasi (keyingi o'rinlarda "O'zenergoinspeksiya" deb ataladi) iste'molchilarning issiqlikdan foydalanish qurilmalari va issiqlik tarmoqlarining ekspluatatsiya qilishga tayyorligini aniqlaydi.

(5-band O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 9-iyuldagi 567-sonli qarori tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 11.07.2019-y., 09/19/567/3404-son)

Oldingi tahrirga qarang.

6. Davlat xizmatlari markazlari, "O'zenergoinspeksiya", issiqlik ta'minoti korxonalari, loyihalash, qurilish-montaj va sozlash-ishga tushirish tashkilotlari o'rtasida axborot almashinuvi elektron raqamli imzoni (keyingi o'rinlarda ERI deb ataladi) majburiy tartibda qo'llash orqali faqat idoralararo elektron o'zaro bog'lanish yordamida amalga oshiriladi.

(6-band O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 3-iyundagi 348-sonli qarori tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 04.06.2020-y., 09/20/348/0716-son)

7. Iste'molchilarni issiqlik ta'minoti tarmoqlariga ulash ushbu Reglamentga 1-ilovaga muvofiq sxema bo'yicha amalga oshiriladi.

2-bob. Davlat xizmatlari ko'rsatish tartibi

1-§. Murojaatlarni shakllantirish va yuborish

8. Iste'molchilar issiqlik ta'minoti tarmoqlariga ulanish uchun Davlat xizmatlari markazlariga o'zi kelib murojaat etadi yoki O'zbekiston Respublikasi Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalida (keyingi o'rinlarda YIDXP deb ataladi) davlat xizmatidan elektron tarzda foydalanish uchun ro'yxatdan o'tadi.

9. O‘zi kelib murojaat etganda Davlat xizmatlari markazi xodimi iste‘molchi nomidan, YIDXP orqali murojaat qilinganda esa iste‘molchi mustaqil ravishda ushbu Reglamentga 2-ilovaga muvofiq davlat xizmatlaridan foydalanish uchun so‘rovnomani elektron tarzda to‘ldiradi.

Iste‘molchilardan ushbu badda ko‘rsatilmagan ma‘lumotlarni, shuningdek, boshqa hujjatlarni taqdim etishni talab qilish qat‘iyan taqiqlanadi.

Oldingi tahrirga qarang.

10. Iste‘molchi zarur ma‘lumotlarni rasmiylashtirgandan va so‘rovnomaga kiritgandan so‘ng uni o‘z ERI bilan tasdiqlaydi.

O‘zi kelib murojaat etgan taqdirda, so‘rovnomani ERI bilan tasdiqlash imkoniyati bo‘lmagan hollarda tegishli imzolar identifikatsiya qilishning boshqa vositalari (daktiloskopiya, elektron imzo va boshqalar) bilan ham tasdiqlanishi mumkin.

(10-band O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 2-iyuldagi 548-sonli qarori tahririda — Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 02.07.2019-y., 09/19/548/3362-son)

Oldingi tahrirga qarang.

11. Davlat xizmatlarini ko‘rsatish uchun bazaviy hisoblash miqdorining 10 foizi miqdorida yig‘im undiriladi, issiqlik ta‘minoti loyihasi binolar, inshootlar va boshqa obyektlar qurilishining loyiha-smeta hujjatlarini ko‘rib chiqish va kelishish jarayoni bilan bir vaqtda kelishiladigan holatlar bundan mustasno.

(11-bandning birinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 28-noyabrdagi 961-sonli qarori tahririda — Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 29.11.2019-y., 09/19/961/4092-son)

Oldingi tahrirga qarang.

Davlat xizmati ko‘rsatilishi uchun YIDXP orqali murojaat etilganda, ushbu bandning birinchi xatboshida ko‘rsatilgan yig‘im summasining 90 foizi undiriladi.

(11-band O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 2-iyuldagi 548-sonli qaroriga asosan ikkinchi xatboshi bilan to‘ldirilgan — Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 02.07.2019-y., 09/19/548/3362-son)

Davlat xizmatlarini ko‘rsatish uchun yig‘im to‘langanligini tasdiqlash axborot-kommunikatsiya tizimlari orqali amalga oshiriladi.

Oldingi tahrirga qarang.

12. Yig‘imlar summasi quyidagi tartibda taqsimlanadi:

a) Davlat xizmatlari markazlariga o‘zi kelib murojaat etganda:

20 foizi — O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi budjetdan tashqari jamg‘armasining shaxsiy hisob raqamiga o‘tkaziladi;

qolgan mablag‘lar teng miqdorda Elektr energetikada nazorat inspeksiyasi va issiqlik ta‘minoti korxonasi bank hisob raqamlariga o‘tkaziladi;

b) YIDXP orqali murojaat etilganda:

10 foizi — O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi budjetdan tashqari jamg‘armasining shaxsiy hisob raqamiga o‘tkaziladi;

Oldingi tahrirga qarang.

11,25 foizi — O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Loyiha boshqaruvi milliy agentligi qoshidagi Elektron hukumat va raqamli iqtisodiyot loyihalarini boshqarish markazi” DUKning hisob raqamiga;

(12-band “b” kichik bandining uchinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 14-yanvardagi 24-sonli qarori tahririda — Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 15.01.2020-y., 09/20/24/0053-son)

qolgan mablag‘lar teng miqdorda Elektr energetikada nazorat inspeksiyasi va issiqlik ta‘minoti korxonasi bank hisob raqamlariga o‘tkaziladi.

(12-band O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 2-iyuldagi 548-sonli qarori tahririda — Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 02.07.2019-y., 09/19/548/3362-son)

Oldingi tahrirga qarang.

13. So‘rovnomada noto‘g‘ri ma‘lumotlar ko‘rsatilishi, shuningdek, davlat xizmatlarini ko‘rsatish uchun yig‘imni to‘lamaslik davlat xizmati ko‘rsatishni rad etish uchun asos hisoblanadi.

(13-bandning birinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 2-iyuldagi 548-sonli qarori tahririda — Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 02.07.2019-y., 09/19/548/3362-son)

Davlat xizmatlarini ko‘rsatishni boshqa asoslar bo‘yicha rad etish qat‘iyan taqiqlanadi.

14. Iste‘molchi davlat xizmatlaridan foydalanishdan u ko‘rsatilishining har qanday bosqichida bosh tortish huquqiga ega.

Iste‘molchi davlat xizmatlaridan foydalanishdan bosh tortganda uning so‘rovnomasi ko‘rmasdan qoldiriladi. Bunda, to‘langan yig‘im summasi qaytarilmaydi.

15. O‘zi kelib murojaat etganda Davlat xizmatlari markazlari so‘rovnoma to‘ldirilgan vaqtdan boshlab bir soat mobaynida uni issiqlik ta‘minoti korxonasiga texnik shartlarni ishlab chiqish uchun yuboradi.

YIDXP orqali murojaat qilinganda so‘rovnoma avtomatik tarzda issiqlik ta‘minoti korxonasiga texnik shartlarni ishlab chiqish uchun yuboriladi.

2-§. Texnik shartlarni ishlab chiqish va berish, shuningdek, tijorat takliflari va shartnomalar loyihalarini taqdim etish

16. Issiqlik ta‘minoti korxonasi so‘rovnoma tushganidan so‘ng uch ish kuni mobaynida texnik shartlarni ishlab chiqadi va elektron shaklda Davlat xizmatlari markaziga (o‘zi kelib murojaat etganda) yoki iste‘molchiga YIDXP orqali (elektron shaklda murojaat qilinganda) yuboradi yoxud ularni ishlab chiqishni rad etadi.

Issiqlik ta‘minoti korxonasi qurilish-montaj va sozlash-ishga tushirish ishlarini amalga oshirish bo‘yicha o‘zining tijorat takliflarini hamda shartnomalar loyihalarini ham yuborishi mumkin.

O‘zi kelib murojaat etganda, Davlat xizmatlari markazi texnik shartlar hamda issiqlik ta‘minoti korxonasining qurilish-montaj va sozlash-ishga tushirish ishlarini amalga oshirish bo‘yicha tijorat takliflari va shartnomalar loyihalari tushganidan so‘ng bir soat mobaynida texnik shartlarga o‘zining muhrini bosib, iste‘molchiga beradi.

17. Ulanish yoki mavjud issiqlik yuklamalarini oshirishning texnik imkoniyati mavjud emasligi texnik shartlarni ishlab chiqishni rad etish uchun asos bo‘ladi.

Boshqa asoslarga ko‘ra texnik shartlarni ishlab chiqishni rad etish qat‘iyan taqiqlanadi.

18. Ishlab chiqilgan texnik shartlar iste‘molchining aloqa qilinadigan ma‘lumotlari ilova qilingan holda loyihalash, qurilish-montaj va sozlash-ishga tushirish ishlarini amalga oshirish bo‘yicha o‘zlarining tijorat takliflari va shartnomalar loyihalarini taqdim etishi maqsadida loyihalash, qurilish-montaj va sozlash-ishga tushirish tashkilotlarining tanishishi uchun YIDXPda joylashtiriladi.

3-§. Iste‘molchilarni issiqlik ta‘minoti tarmoqlariga ulash

19. Issiqlik ta‘minoti loyahasini ishlab chiqish uchun iste‘molchilar loyihalash tashkilotlari bilan loyihalash ishlarini bajarishga shartnomalar tuzadi.

20. Loyihalash ishlari loyihalash ishlarini bajarish bo‘yicha shartnomalarda belgilangan muddatlarda amalga oshiriladi.

Oldingi tahrirga qarang.

21. Loyihalash tashkiloti loyihalash ishlarini amalga oshirganidan so‘ng YIDXPda ushbu Reglamentga **3-ilovaga** muvofiq shakl bo‘yicha so‘rovnomani to‘ldiradi va o‘zining ERI bilan tasdiqlaydi, issiqlik ta‘minoti loyihasi binolar, inshootlar va boshqa obyektlar qurilishining loyiha-smeta hujjatlarini ko‘rib chiqish va kelishish jarayoni bilan bir vaqtda kelishiladigan holatlar bundan mustasno.

(21-bandning birinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 28-noyabrdagi 961-sonli qarori tahririda — Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 29.11.2019-y., 09/19/961/4092-son)

So‘rovnomaga issiqlik ta‘minoti loyihasi elektron shaklda ilova qilinadi.

Loyihalash tashkilotidan ushbu bandda ko‘rsatilmagan hujjatlar va ma‘lumotlarni taqdim etishni talab etish qat‘iyan taqiqlanadi.

So'rovnoma issiqlik ta'minoti loyihasini kelishish uchun issiqlik ta'minoti korxonasi avtomatik tarzda yuboriladi.

Oldingi tahrirga qarang.

22. Issiqlik ta'minoti korxonasi ushbu Reglamentga **3-ilovaga**, shu jumladan Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 18-maydagi 370-son qarori bilan tasdiqlangan Loyiha-smeta hujjatlarini kelishish hamda bir vaqtda obyektning zilzilaga bardoshliligi va yong'in xavfsizligi bo'yicha loyihaviy yechimlarini ekspertizadan o'tkazish bo'yicha davlat xizmatlari ko'rsatishning ma'muriy reglamentining **2-ilovasiga** muvofiq shakldagi so'rovnoma tushganidan so'ng uch ish kuni mobaynida issiqlik ta'minoti loyihasini kelishadi yoki kelishishni rad etadi.

(22-bandning birinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 28-noyabrdagi 961-sonli qarori tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 29.11.2019-y., 09/19/961/4092-son)

Issiqlik ta'minoti loyihasini kelishish uni issiqlik ta'minoti korxonasi ERI bilan tasdiqlash orqali amalga oshiriladi.

23. Issiqlik ta'minoti loyihasining texnik shartlar talablaridan chetga chiqishi issiqlik ta'minoti loyihasini kelishishni rad etishga asos bo'ladi.

Boshqa sabablarga ko'ra issiqlik ta'minoti loyihasini kelishishni rad etish qat'iy taqiqlanadi.

Issiqlik ta'minoti loyihasini kelishishni rad etish uchun asos bo'lgan sabablar loyihalash tashkiloti tomonidan bartaraf etilgan taqdirda, qayta kelishish takroriy so'rovnoma tushganidan so'ng bir ish kundan oshmagan muddatda amalga oshiriladi.

Issiqlik ta'minoti loyihasini takroran ko'rib chiqishda issiqlik ta'minoti korxonasi tomonidan avvalgi rad etish asoslarida bayon etilmagan sabablarning keltirilishiga yo'l qo'yilmaydi, avval ko'rsatilgan sabablar bartaraf etilganligini tasdiqlovchi ma'lumotlar bilan bog'liq rad etish sabablari keltirilishi bundan mustasno.

Oldingi tahrirga qarang.

24. Kelishilgan issiqlik ta'minoti loyihasi u kelishilgan kunda elektron shaklda issiqlik ta'minoti korxonasi tomonidan loyihalash tashkilotiga issiqlik ta'minoti loyihasi binolar, inshootlar va boshqa obyektlar qurilishining loyiha-smeta hujjatlarini ko'rib chiqish va kelishish jarayoni bilan bir vaqtda kelishiladigan hollarda loyiha tashkilotiga davlat xizmatlari markazi (o'zi kelib murojaat qilgan taqdirda) yoki YIDXP orqali yuboriladi.

(24-band O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 28-noyabrdagi 961-sonli qarori tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 29.11.2019-y., 09/19/961/4092-son)

25. Issiqlik ta'minoti tarmoqlariga ulash bo'yicha qurilish-montaj va sozlash-ishga tushirish ishlarini amalga oshirish uchun iste'molchilar issiqlik ta'minoti korxonalari yoki boshqa qurilish-montaj va sozlash-ishga tushirish tashkilotlari bilan tegishli shartnomalar tuzish huquqiga ega.

26. Qurilish-montaj va sozlash-ishga tushirish ishlari qurilish-montaj va sozlash-ishga tushirish ishlarini amalga oshirish bo'yicha shartnomalarda belgilangan muddatlarda amalga oshiriladi.

Oldingi tahrirga qarang.

26¹. Agar so'rovnoma tushgan kundan boshlab, mazkur Reglamentning **22-bandida** ko'rsatilgan muddat o'tgandan so'ng issiqlik ta'minoti korxonasi issiqlik ta'minoti loyihasini kelishmasa, issiqlik ta'minoti loyihasi kelishilgan deb hisoblanadi.

Bunda Davlat xizmatlari markazi tomonidan zudlik bilan issiqlik ta'minoti loyihasini ko'rib chiqish va kelishish to'g'risida bildirishnoma beriladi.

(26¹-band O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 9-iyuldagi 567-sonli qaroriga asosan kiritilgan — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 11.07.2019-y., 09/19/567/3404-son)

Oldingi tahrirga qarang.

4-§. Iste'molchilarning issiqlikdan foydalanish qurilmalari va issiqlik tarmoqlarini ulash dalolatnomasini rasmiylashtirish va tasdiqlash tartibi

(4-paragrafning nomi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 9-iyuldagi 567-sonli qarori tahririda — Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 11.07.2019-y., 09/19/567/3404-son)

27. Qurilish-montaj va sozlash-ishga tushirish tashkilotlari qurilish-montaj va sozlash-ishga tushirish ishlarini tugatgandan so‘ng YIDXPda ushbu Reglamentga 4-ilovaga muvofiq shakl bo‘yicha so‘rovnomani to‘ldiradi va o‘zining ERI bilan tasdiqlaydi.

So‘rovnomaga ushbu Reglamentga 5-ilovada ko‘rsatilgan hujjatlar ro‘yxatiga muvofiq hujjatlar elektron shaklda ilova qilinadi.

Qurilish-montaj va sozlash-ishga tushirish tashkilotlaridan ushbu bandeda ko‘rsatilmagan ma’lumotlar va hujjatlarni talab qilish qat’iyan taqiqlanadi.

Oldingi tahrirga qarang.

Issiqlikdan foydalanish qurilmalari va issiqlik tarmoqlarini joyiga chiqqan holda texnik ko‘rikdan o‘tkazish haqidagi bildirishnoma avtomatik ravishda “O‘zenergoinspeksiya”ga yuboriladi.

(27-bandning to‘rtinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 3-iyundagi 348-sonli qarori tahririda — Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 04.06.2020-y., 09/20/348/0716-son)

28. “O‘zdavenergonazorat” DI joyning o‘ziga chiqib qurilish-montaj va sozlash-ishga tushirish ishlari qonun hujjatlarida belgilangan talablar va texnik shartlarga muvofiqligini o‘rganadi, shuningdek, issiqlikdan foydalanish qurilmalarini soz holda saqlashga tayyorlangan issiqlik-texnik xodimlarning mavjudligini tekshiradi.

Oldingi tahrirga qarang.

29. “O‘zenergoinspeksiya” bildirishnoma tushgan kundan boshlab ikki ish kuni davomida issiqlik energiyasi iste‘molchilarining issiqlikdan foydalanish qurilmalari va issiqlik tarmoqlarini texnik ko‘rikdan o‘tkazadi.

(29-band O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 3-iyundagi 348-sonli qarori tahririda — Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 04.06.2020-y., 09/20/348/0716-son)

Oldingi tahrirga qarang.

29¹. Taqdim etilgan hujjatlarni ko‘rib chiqish va issiqlikdan foydalanish qurilmalari hamda issiqlik tarmoqlarini texnik ko‘rikdan o‘tkazish yakunlari bo‘yicha mazkur Reglamentga 7-ilovaga muvofiq shaklda iste‘molchilar elektr qurilmalarini texnik ko‘rikdan o‘tkazish bayonnomasi (keyingi o‘rinlarda Bayonnomasi deb ataladi) tuzilib, unda iste‘molchi elektr qurilmalari foydalanishga tayyorligi (tayyor emasligi) to‘g‘risida yozuv qayd etiladi.

(29¹-band O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 9-iyuldagi 567-sonli qaroriga asosan kiritilgan — Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 11.07.2019-y., 09/19/567/3404-son)

Oldingi tahrirga qarang.

30. Iste‘molchining issiqlikdan foydalanish qurilmalarini montaj qilishda aniqlangan kamchiliklar, texnik shartlar talablaridan chetga chiqish, shuningdek, issiqlik energiyasi qurilmalariga xizmat ko‘rsatish uchun tayyorlangan xodimlarning mavjud emasligi Dalolatnomani imzolashni rad etishga asos bo‘ladi.

Boshqa asoslarga, shu jumladan maqsadga muvofiq emasligi sababli Dalolatnomani imzolashni rad etishga yo‘l qo‘yilmaydi.

Oldingi tahrirga qarang.

Qoidabuzarliklar to‘g‘risidagi bildirishnoma “O‘zenergoinspeksiya” tomonidan qurilish-montaj va ishga tushirish-sozlash tashkilotlariga YIDXP orqali rad etish sabablari, qonun hujjatlarining aniq normalari ko‘rsatilgan holda yuboriladi.

(30-bandning uchinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 3-iyundagi 348-sonli qarori tahririda — Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 04.06.2020-y., 09/20/348/0716-son)

Qurilish-montaj va ishga tushirish-sozlash tashkilotlari mavjud qoidabuzarliklarni bartaraf etib, qayta ko‘rib chiqish uchun hujjatlarni topshirish huquqiga ega bo‘lgan muddat “O‘zenergoinspeksiya”ning qoidabuzarliklar mavjudligi to‘g‘risidagi bildirishnomasi olingan kundan boshlab o‘n ish kunidan kam bo‘lmasligi kerak.

Qurilish-montaj va ishga tushirish-sozlash tashkilotlari tomonidan “O‘zenergoinspeksiya”ning Dalolatnomani imzolashni rad etishiga asos bo‘lgan sabablar bartaraf etilgandan so‘ng ushbu tashkilotlar “O‘zenergoinspeksiya”ga issiqlikdan foydalanish qurilmalari va issiqlik tarmoqlarini qaytadan ko‘rikdan o‘tkazish uchun joylarga chiqish to‘g‘risidagi bildirishnomani YIDXP orqali yuboradi.

“O‘zenergoinspeksiya” issiqlikdan foydalanish qurilmalari va issiqlik tarmoqlarini bildirishnoma kelib tushgan kundan boshlab bir ish kunidan oshmagan muddatda qayta texnik ko‘rikdan o‘tkazadi.

Iste‘molchining issiqlikdan foydalanish qurilmalari va issiqlik tarmoqlari ekspluatatsiya qilishga tayyorligi va Dalolatnomani imzolash imkoniyati to‘g‘risidagi masalani qayta ko‘rib chiqishda, “O‘zenergoinspeksiya” tomonidan Dalolatnomani imzolashni rad etish asoslarida bayon etilmagan sabablarni keltirishga yo‘l qo‘yilmaydi, Dalolatnomani imzolashda avval keltirilgan sabablar bartaraf etilganini tasdiqlovchi ma‘lumotlar bilan bog‘liq bo‘lgan sabablarning keltirilishi bundan mustasno.

(30-band O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 9-iyuldagi 567-sonli qarori tahririda — Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 11.07.2019-y., 09/19/567/3404-son)

Oldingi tahrirga qarang.

31. “O‘zenergoinspeksiya” mazkur Reglamentning 29-30-bandlarida nazarda tutilgan muddat tugagandan so‘ng iste‘molchining issiqlikdan foydalanish qurilmalari hamda issiqlik tarmoqlari ekspluatatsiya qilishga tayyorligi va Dalolatnomani imzolashga tayyorligi to‘g‘risidagi bildirishnomani issiqlik ta‘minoti korxonasi, qurilish-montaj va ishga tushirish-sozlash tashkilotlariga, shuningdek, iste‘molchiga (elektron ko‘rinishda murojaat etganda) yoki Davlat xizmatlari markaziga (o‘zi kelib murojaat etganda) YIDXP orqali yuboradi.

(31-band O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 9-iyuldagi 567-sonli qarori tahririda — Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 11.07.2019-y., 09/19/567/3404-son)

Oldingi tahrirga qarang.

(5-paragrafning nomi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 9-iyuldagi 567-sonli qaroriga asosan o‘z kuchini yo‘qotgan — Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 11.07.2019-y., 09/19/567/3404-son)

Oldingi tahrirga qarang.

32. Issiqlik energiyasini hisobga olish asboblarini plombalash va issiqlik ta‘minoti shartnomasini tuzish “O‘zenergoinspeksiya”ni iste‘molchining issiqlikdan foydalanish qurilmalari va issiqlik tarmoqlari ekspluatatsiya qilishga tayyorligi to‘g‘risida xabardor qilingandan keyin amalga oshiriladi.

(32-band O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 9-iyuldagi 567-sonli qarori tahririda — Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 11.07.2019-y., 09/19/567/3404-son)

33. O‘zi kelib murojaat etganda Davlat xizmatlari markazi xodimi iste‘molchi nomidan, YIDXP orqali murojaat qilinganda esa iste‘molchi mustaqil ravishda ushbu Reglamentga 6-ilovaga muvofiq issiqlik energiyasini hisobga olish priborini plombalash va issiqlik ta‘minoti shartnomasini tuzish uchun so‘rovnomaning elektron tarzda to‘ldiradi.

Iste‘molchilardan ushbu bandda ko‘rsatilmagan ma‘lumotlarni, shuningdek, boshqa hujjatlarni taqdim etishni talab qilish qat‘iyan taqiqlanadi.

34. Iste‘molchi zarur ma‘lumotlarni rasmiylashtirgandan va so‘rovnomaga kiritganidan so‘ng uni o‘z ERI bilan tasdiqlaydi.

Oldingi tahrirga qarang.

O‘zi kelib murojaat etgan taqdirda, so‘rovnomaning ERI bilan tasdiqlash imkoniyati bo‘lmagan hollarda tegishli imzolar identifikatsiya qilishning boshqa vositalari (daktiloskopiya, elektron imzo va boshqalar) bilan ham tasdiqlanishi mumkin.

(34-band O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 2-iyuldagi 548-sonli qaroriga asosan ikkinchi xatboshi bilan to‘ldirilgan — Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 02.07.2019-y., 09/19/548/3362-son)

35. O‘zi kelib murojaat etganda Davlat xizmatlari markazlari so‘rovnoma to‘ldirilgan vaqtdan boshlab bir soat mobaynida uni issiqlik ta‘minoti korxonasi hisobga olish priborini plombalash va issiqlik ta‘minoti shartnomasini tuzish uchun yuboradi.

YIDXP orqali murojaat qilinganda so‘rovnoma avtomatik tarzda issiqlik ta‘minoti korxonasi hisobga olish priborini plombalash va issiqlik ta‘minoti shartnomasini tuzish uchun yuboriladi.

Oldingi tahrirga qarang.

36. Issiqlik ta‘minoti korxonasi so‘rovnoma tushgan kundan boshlab bir ish kuni mobaynida joyning o‘ziga chiqib issiqlik energiyasini hisobga olish priborini plombalashni amalga oshiradi.

(36-band O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 9-iyuldagi 567-sonli qarori tahririda — Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 11.07.2019-y., 09/19/567/3404-son)

Oldingi tahrirga qarang.

37. Issiqlik ta‘minoti korxonasi issiqlik energiyasini hisobga olish asbobi plombalangan kunning o‘zida Davlat xizmatlari markaziga (o‘zi kelib murojaat etganda) yoki iste‘molchiga YIDXP orqali (elektron shaklda murojaat qilinganda) plombalash o‘tkazilganligi to‘g‘risidagi ma‘lumotlar ko‘rsatilgan rasmiylashtirilgan elektr ta‘minoti shartnomasini elektron shaklda yuboradi.

Bir vaqtning o‘zida issiqlik ta‘minoti korxonasi hisobga olish tizimini plombalash kunida mazkur Reglamentga 7-ilovaga muvofiq shakldagi Dalolatnomani rasmiylashtiradi va Dalolatnoma rasmiylashtirilganidan keyingi soat mobaynida uni imzolash sanasini “O‘zenergoinspeksiya”, qurilish-montaj va ishga tushirish-sozlash tashkilotlari bilan YIDXP orqali kelishadi.

Dalolatnomani imzolashning kelishilgan sanasi issiqlik ta‘minoti korxonasi tomonidan yuqorida keltirilgan barcha tomonlar xabardor qilingan paytdan boshlab ikki kalendar kundan oshmasligi lozim.

Dalolatnoma yuqorida keltirilgan tomonlarning barcha vakillari tomonidan belgilangan kundan kechikmasdan imzolanadi.

Agar Reglamentning ushbu bandida ko‘rsatilgan muddat tugagandan so‘ng Dalolatnomani qayd etilgan tomonlar imzolamasa, Dalolatnoma kelishilgan deb hisoblanadi.

(37-band O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 9-iyuldagi 567-sonli qarori tahririda — Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 11.07.2019-y., 09/19/567/3404-son)

Oldingi tahrirga qarang.

37¹. Dalolatnoma mazkur Reglamentning 37-bandida ko‘rsatilgan tomonlar uni imzolagach, issiqlik ta‘minoti korxonasi rahbari yoki bosh muhandisi tomonidan tasdiqlanadi.

(37¹-band O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 9-iyuldagi 567-sonli qaroriga asosan kiritilgan — Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 11.07.2019-y., 09/19/567/3404-son)

38. Davlat xizmatlari markazi rasmiylashtirilgan issiqlik ta‘minoti shartnomasi tushganidan so‘ng bir soat ichida bu haqida iste‘molchini axborot-kommunikatsiya tizimlari orqali xabardor qiladi.

39. Iste‘molchi rasmiylashtirilgan issiqlik ta‘minoti shartnomasi tushganidan so‘ng besh ish kuni mobaynida uni o‘zining ERI bilan tasdiqlaydi.

Oldingi tahrirga qarang.

Shartnomani ERI bilan tasdiqlash imkoniyati bo‘lmagan hollarda, tegishli imzolar identifikatsiya qilishning boshqa vositalari (daktiloskopiya, elektron imzo va boshqalar) bilan ham tasdiqlanishi mumkin.

(39-band O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 2-iyuldagi 548-sonli qaroriga asosan ikkinchi xatboshi bilan to‘ldirilgan — Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 02.07.2019-y., 09/19/548/3362-son)

Iste‘molchi tomonidan tasdiqlangan issiqlik ta‘minoti shartnomasi issiqlik ta‘minoti korxonasi Davlat xizmatlari markazi tomonidan (o‘zi kelib murojaat etganda) yoki iste‘molchi tomonidan YIDXP orqali (elektron shaklda murojaat qilinganda) yuboriladi.

40. Iste‘molchi issiqlik ta‘minoti shartnomasini tasdiqlashdan bosh tortganda yoki u belgilangan muddatda yuborilmaganda issiqlik ta‘minoti shartnomasi tuzilmagan hisoblanadi.

41. Issiqlik energiyasini yetkazib berish issiqlik ta'minoti korxonasi tomonidan quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

qonun hujjatlarida oldindan to'lovni amalga oshirishi nazarda tutilgan iste'molchilar uchun — iste'molchi tomonidan oldindan to'lov amalga oshirilgan kuni;

qonun hujjatlarida oldindan to'lovni amalga oshirishi nazarda tutilmagan iste'molchilar uchun — iste'molchi tomonidan tasdiqlangan shartnoma olingan kuni.

42. Ulash qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

3-bob. Yakunlovchi qoidalar

Oldingi tahrirga qarang.

43. Texnik shartlarni, shu jumladan, qo'shimcha texnik shartlarni ishlab chiqish, berish, issiqlik ta'minoti loyihalarini kelishish, iste'molchilarning issiqlikdan foydalanish qurilmalari va issiqlik tarmoqlari ekspluatatsiya qilishga tayyorligini aniqlash va issiqlik energiyasini hisobga olish priborini plombalash to'lov undirilmagan holda amalga oshiriladi, davlat xizmatlari ko'rsatilganligi uchun yig'im undirilishi bundan mustasno.

(43-band O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 9-iyuldagi 567-sonli qarori tahririda — Qonun hujjatlarini ma'lumotlari milliy bazasi, 11.07.2019-y., 09/19/567/3404-son)

Oldingi tahrirga qarang.

44. Davlat xizmatlari markazlari, issiqlik ta'minoti korxonalari, "O'zenergoinspeksiya", loyihalash, qurilish-montaj va sozlash-ishga tushirish tashkilotlari o'z faoliyatini amalga oshirishi natijasida olingan iste'molchi haqidagi ma'lumotlarning maxfiyligini ta'minlashi kerak.

(44-band O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 9-iyuldagi 567-sonli qarori tahririda — Qonun hujjatlarini ma'lumotlari milliy bazasi, 11.07.2019-y., 09/19/567/3404-son)

45. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi, uning hududiy boshqarmalari va Davlat xizmatlari markazlari ushbu Reglament talablari ijrosi bo'yicha davlat organlari va boshqa tashkilotlarning faoliyati ustidan, shu jumladan, YIDXP orqali, doimiy nazoratni va monitoringni amalga oshiradilar.

46. Iste'molchi davlat organlari va boshqa tashkilotlar xodimlarining xatti-harakatlari yuzasidan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda shikoyat qilishi mumkin.

47. Ushbu Reglament talablari buzilishida aybdor bo'lgan shaxslar qonun hujjatlarida belgilangan tartibda javob beradilar.

Yuridik va jismoniy shaxslarni issiqlik ta'minoti tarmoqlariga ulash bo'yicha davlat xizmatlari ko'rsatishning ma'muriy reglamentiga
1-ILOVA

Yuridik va jismoniy shaxslarni issiqlik ta'minoti tarmoqlariga ulash

SXEMASI

Oldingi tahrirga qarang.

Bosqichlar	Subyektlar	Tadbirlar	Bajarish muddatlari
I. Texnik shartlarni ishlab chiqish va berish, shuningdek, tijorat takliflari va shartnomalar loyihalarini taqdim etish			
1-bosqich	Iste'molchi	1. Issiqlik ta'minoti tarmoqlariga ulanish uchun Davlat xizmatlari markaziga o'zi kelib murojaat qilish yoki YIDXPda ro'yxatdan o'tish. 2. Davlat xizmatini ko'rsatish uchun yig'im to'lash.	1. Xohishiga ko'ra 2. Murojaat qilinganda

2-bosqich	1. Davlat xizmatlari markazi 2. YIDXP	Texnik shartlarni ishlab chiqish uchun so'rovnomani issiqlik ta'minoti korxonasiga yuborish.	1. 1 soat mobaynida 2. Avtomatik tarzda
-----------	------------------------------------------	----------------------------------------------------------------------------------------------	--------------------------------------------

3-bosqich	Issiqlik ta'minoti korxonasi	1. Texnik shartlarni ishlab chiqish va Davlat xizmatlari markaziga (o'zi kelib murojaat etganda) yoki iste'molchiga YIDXP orqali (elektron tarzda murojaat etgan taqdirda) yuborish. 2. Qurilish-montaj va sozlash-ishga tushirish ishlarini amalga oshirish bo'yicha o'zining tijorat takliflarini va shartnomalar loyihalarini berish huquqi.	3 ish kuni mobaynida
-----------	------------------------------	----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------	----------------------

4-bosqich	Davlat xizmatlari markazi	Texnik shartlarni, shuningdek, issiqlik ta'minoti korxonasining qurilish-montaj va sozlash-ishga tushirish ishlarini amalga oshirish bo'yicha tijorat takliflari va shartnomalar loyihalarini texnik shartlarga o'zining muhrini bosib, iste'molchiga berish.	1 soat mobaynida
-----------	---------------------------	---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------	------------------

II. Iste'molchilarni issiqlik ta'minoti tarmoqlariga ulash

1-bosqich	Iste'molchi	Issiqlik ta'minoti loyahasini ishlab chiqish uchun loyihalash tashkilotlari bilan loyihalash ishlarini bajarish bo'yicha shartnomalar tuzish.	Xohishiga ko'ra (<i>texnik shartlarni olgandan so'ng</i>)
-----------	-------------	-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------	----------------------------------------------------------------

2-bosqich	Loyihalash tashkilotlari	Issiqlik ta'minoti tarmoqlariga ulash bo'yicha loyihalash ishlarini amalga oshirish.	Shartnomalarda belgilangan muddatlarda
-----------	--------------------------	--------------------------------------------------------------------------------------	----------------------------------------

3-bosqich	Loyihalash tashkiloti	Issiqlik ta'minoti loyahasini kelishish uchun YIDXPda so'rovnomani to'ldirish.	Xohishiga ko'ra (<i>loyihalash ishlari amalga oshiril-ganidan so'ng</i>)
-----------	-----------------------	--------------------------------------------------------------------------------	-------------------------------------------------------------------------------

4-bosqich	YIDXP	So'rovnomani issiqlik ta'minoti loyahasini kelishish uchun issiqlik ta'minoti korxonasiga yuborish.	Avtomatik tarzda
-----------	-------	-----------------------------------------------------------------------------------------------------	------------------

5-bosqich	Issiqlik ta'minoti korxonasi	1. Issiqlik ta'minoti loyahasini ERI bilan tasdiqlash orqali kelishish.	3 ish kuni mobaynida
-----------	------------------------------	-------------------------------------------------------------------------	----------------------

		2. Kelishilgan issiqlik ta'minoti loyihasini YIDXP orqali loyihalash tashkilotiga yuborish.	
--	--	---------------------------------------------------------------------------------------------	--

6-bosqich	Iste'molchi	Issiqlik ta'minoti korxonasi yoki boshqa qurilish-montaj va sozlash-ishga tushirish tashkilotlari bilan qurilish-montaj va sozlash-ishga tushirish ishlarini amalga oshirish bo'yicha shartnoma tuzish.	Xohishiga ko'ra (<i>loyiha kelishilganidan so'ng</i>)
-----------	-------------	---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------	------------------------------------------------------------

7-bosqich	Issiqlik ta'minoti korxonasi yoki boshqa qurilish-montaj va sozlash-ishga tushirish tashkilotlari	Issiqlik ta'minoti tarmoqlariga ulash bo'yicha qurilish-montaj va sozlash-ishga tushirish ishlarini amalga oshirish.	Shartnomalarda belgilangan muddatlarda
-----------	---------------------------------------------------------------------------------------------------	----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------	----------------------------------------

III. Iste'molchilarning issiqlikdan foydalanish qurilmalari va issiqlik tarmoqlarini ishga tushirish uchun ruxsat berish

1-bosqich	Qurilish-montaj va sozlash-ishga tushirish tashkilotlari	Iste'molchilarning issiqlikdan foydalanish qurilmalari va issiqlik tarmoqlarini ishga tushirishga ruxsat berish uchun YIDXPda so'rovnomani to'ldirish.	Xohishiga ko'ra (<i>qurilish-montaj va sozlash-ishga tushirish ishlari tugaganidan so'ng</i>)
-----------	----------------------------------------------------------	--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------	----------------------------------------------------------------------------------------------------

2-bosqich	YIDXP	So'rovnomani iste'molchilarning issiqlikdan foydalanish qurilmalari va issiqlik tarmoqlarini ishga tushirishga ruxsat berish uchun "O'zdavenergonazorat" DIga yuborish.	Avtomatik tarzda
-----------	-------	-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------	------------------

3-bosqich	"O'zdavenergonazorat" DI	<p>1. Joyning o'ziga chiqib qurilish-montaj va sozlash-ishga tushirish ishlari qonun hujjatlarida belgilangan talablar va texnik shartlarga muvofiqligini o'rganish, shuningdek, issiqlikdan foydalanish qurilmalarini soz holda saqlashga tayyorlangan issiqlik-texnik xodimlarning mavjudligini tekshirish.</p> <p>2. Issiqlikdan foydalanish qurilmalarini ishga tushirish uchun ruxsatnoma berish.</p> <p>3. Issiqlikdan foydalanish qurilmalarini ishga tushirish uchun ruxsatnomani YIDXP orqali qurilish-montaj va sozlash-ishga tushirish tashkilotlariga yuborish.</p>	5 ish kuni mobaynida
-----------	--------------------------	---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------	----------------------

(1-ilova O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 9-iyuldagi 567-sonli qarori tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 11.07.2019-y., 09/19/567/3404-son)

Yuridik va jismoniy shaxslarni issiqlik ta'minoti tarmoqlariga ulash bo'yicha davlat xizmatlari ko'rsatishning ma'muriy reglamentiga
2-ILOVA

Oldingi tahrirga qarang.

(sana)

(raqam)

**Issiqlik ta'minoti tarmoqlariga ulash bo'yicha davlat xizmatlaridan foydalanish uchun
SO'ROVNOMA**

I. (jismoniy) Iste'molchi — jismoniy shaxs to'g'risida ma'lumot:

1. F.I.O.:	
3. STIR:	
4. manzili:	
6. telefon raqami:	
7. elektron pochta manzili:	

I. (yuridik) Iste'molchi — yuridik shaxs to'g'risida ma'lumot:

1. to'liq nomi:	
3. STIR:	
11. telefon raqami:	
12. elektron pochta manzili:	

II. Ulanayotgan obyekt to'g'risida ma'lumot:

1. o'rnatiladigan issiqlikdan foydalanish qurilmalari va issiqlik tarmoqlari turi:	
2. o'rnatiladigan issiqlikdan foydalanish qurilmalari soni:	
3. ulanadigan obyekt joylashuvi (indeks, manzil, mo'ljal):	
4. issiqlik energiyasidan foydalanish davri:	
5. xizmat turi:	issiqlikdan foydalanish qurilmalari va issiqlik tarmoqlarini o'zgartirish
	qo'shimcha issiqlikdan foydalanish qurilmalari va issiqlik tarmoqlarini ulash
	ulanish nuqtalarini o'zgartirish
	ishlab chiqarish faoliyati turlarini o'zgartirish

III. Avval ulanganligi to'g'risidagi ma'lumotlar:

1. tuzilgan issiqlik ta'minoti shartnomasining raqami va sanasi:	
------------------------------------------------------------------	--

(ulangan bo'lsa to'ldiriladi)

Berilayotgan texnik shartlardan loyihalash, qurilish-montaj va sozlash-ishga tushirish tashkilotlari kelgusida loyihalash, qurilish-montaj va sozlash-ishga tushirish ishlarini amalga oshirishda o'z tijorat takliflarini berish maqsadida tanishishi uchun texnik shartlarning Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalida joylashtirilishiga iste'molchining roziligi:

roziman

rozi emasman

(2-ilova O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 2-iyuldagi 548-sonli qarori tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 02.07.2019-y., 09/19/548/3362-son)

Yuridik va jismoniy shaxslarni issiqlik ta'minoti tarmoqlariga ulash bo'yicha davlat xizmatlari ko'rsatishning ma'muriy reglamentiga
3-ILOVA

(sana)

(raqam)

**Issiqlik ta'minoti loyihasini issiqlik ta'minoti korxonasi bilan kelishish uchun
SO'ROVNOMA**

I. Kelishilayotgan issiqlik ta'minoti loyihasi to'g'risida ma'lumot:

1. issiqlik ta'minoti loyihasining nomi:	
2. loyiha tashkilotining nomi:	
3. loyiha tashkilotining STIR:	
4. loyiha tashkilotining yuridik manzili:	
5. issiqlik energiyasi iste'moli hisobi:	

II. Ilova qilinadigan hujjatlar:

1. issiqlik ta'minoti loyihasi:	
---------------------------------	--

**Loyihalash tashkilotining
ERI**

Yuridik va jismoniy shaxslarni issiqlik ta'minoti tarmoqlariga ulash bo'yicha davlat xizmatlari
ko'rsatishning ma'muriy reglamentiga
4-ILOVA

(sana)

(raqam)

**Iste'molchilarning issiqlikdan foydalanish qurilmalari va issiqlik tarmoqlarini ishga
tushirishga ruxsatnoma berish uchun
SO'ROVNOMA**

I. Ulanayotgan obyekt to'g'risida ma'lumot:

1. o'rnatiladigan issiqlikdan foydalanish qurilmalari va issiqlik tarmoqlari turi:	
2. o'rnatiladigan issiqlikdan foydalanish qurilmalari soni:	
3. ulanadigan obyekt joylashuvi (indeks, manzil, mo'ljal):	
4. issiqlik energiyasidan foydalanish davri:	
5. yangi o'rnatilayotgan yoki rekonstruksiya qilinayotgan issiqlikdan foydalanish qurilmalari nomi:	
6. qurilish-montaj va (yoki) sozlash-ishga tushirish tashkiloti nomi:	
7. qurilish-montaj va (yoki) sozlash-ishga tushirish tashkilotining STIR:	
8. qurilish-montaj va (yoki) sozlash-ishga tushirish tashkilotining yuridik manzili:	
9. ishlatilayotgan issiqlikdan foydalanish qurilmalari va trubalarining sertifikatini raqami va sanasi:	

II. Ilova qilinadigan hujjatlar:

1. issiqlik xo'jaligi uchun javobgar shaxsni tayinlash to'g'risidagi buyruq nusxasi	
2. issiqlik punktining armatura raqamlari qo'yilgan quvurlari va berkituvchi armaturalarning ijro (ko'rgazmali) sxemasi, yer osti ishlari dalolatnomalari	
3. issiqlikdan foydalanish qurilmalarining pasporti nusxasi	
4. isitish tizimi, issiq suv ta'minoti tizimi va issiqlik tarmoqlarini yuvish; oshqarish bog'lama, issiqlik kiritish va isitish tizimi	

zichlanganligi, soplolar yoki tegishli diametrdagi cheklovchi shaybalar o‘rnatilganligi haqidagi dalolatnomalar	
5. ishlab chiqarish xavfsizligi ekspertizasi xulosasi	

**Qurilish-montaj va (yoki)
sozlash-ishga tushirish
tashkilotining
ERI**

Yuridik va jismoniy shaxslarni issiqlik ta‘minoti tarmoqlariga ulash bo‘yicha davlat xizmatlari
ko‘rsatishning [ma‘muriy reglamentiga](#)
5-ILOVA

**Iste‘molchilarning issiqlikdan foydalanish qurilmalari va issiqlik tarmoqlarini ishga tushirish
uchun ruxsatnoma berish uchun taqdim etiladigan hujjatlar**

RO‘YXATI

1. Issiqlik xo‘jaligi uchun javobgar shaxsni tayinlash to‘g‘risidagi buyruq nusxasi;
2. Issiqlik punktining armatura raqamlari qo‘yilgan quvurlari va berkituvchi armaturalarning ijro (ko‘rgazmali) sxemasi, yer osti ishlari dalolatnomalari;
3. Issiqlikdan foydalanish qurilmalarining pasport nusxasi;
4. Isitish tizimi, issiq suv ta‘minoti tizimi va issiqlik tarmoqlarini yuvish; boshqarish bog‘lamasi, issiqlik kiritish va isitish tizimi zichlanganligi, soplolar yoki tegishli diametrdagi cheklovchi shaybalar o‘rnatilganligi haqidagi dalolatnomalar;
5. Ishlab chiqarish xavfsizligi ekspertizasi xulosasi.

Yuridik va jismoniy shaxslarni issiqlik ta‘minoti tarmoqlariga ulash bo‘yicha davlat xizmatlari
ko‘rsatishning [ma‘muriy reglamentiga](#)
6-ILOVA

Oldingi tahrirga qarang.

(sana)

(raqam)

**Issiqlik energiyasini hisobga olish priborini plombalash va issiqlik ta‘minoti shartnomasini
tuzish uchun
SO‘ROVNOMA**

Issiqlik energiyasini hisobga olish pribori to‘g‘risida ma‘lumotlar:

1. issiqlik energiyasini hisobga olish pribori pasporti raqami:	
2. issiqlik energiyasini hisobga olish priborining muvofiqlik sertifikatini raqami:	
3. issiqlik energiyasini hisobga olish priborining oxirgi marta qiyoslashdan o‘tkazilganligi sanasi:	

*(6-ilova O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 2-iyuldagi 548-sonli qarori
tahririda — Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 02.07.2019-y., 09/19/548/3362-son)*

Oldingi tahrirga qarang.

Yuridik va jismoniy shaxslarni issiqlik ta‘minoti tarmoqlariga ulash bo‘yicha davlat xizmatlari
ko‘rsatishning [ma‘muriy reglamentiga](#)
7-ILOVA

Oldingi tahrirga qarang.

**Iste‘molchilar issiqlik qurilmalarini texnik ko‘rikdan o‘tkazish
BAYONNOMASI**

20__ yil “__” _____dagi __-son

Ushbu Bayonnoma

(qurilish-montaj va ishga tushirish-sozlash tashkilot nomi)

(lavozimi)

(F.I.O.)

qurilish-montaj va ishga tushirish-sozlash tashkilotlarining tomonidan, YIDXP orqali yuborgan 20 ___ yil “ ___ ” ___ -son so‘rovnoma ma‘lumotlariga muvofiq tuzildi.

Iste‘molchi tashkilot vakili (yuridik shaxslar uchun)

(lavozimi)

(F.I.O.)

yoki issiqlik qurilmalari egasining (jismoniy shaxslar uchun) vakili

(F.I.O.)

ishtirokida mansabdor shaxs

(hududiy bo‘lim nomi, lavozimi)

tomonidan taqdim etilgan hujjatlar ko‘rib chiqadi va issiqlik qurilmalari texnik ko‘rikdan o‘tkazildi.

1. Texnik ko‘rikdan o‘tkazish uchun taqdim etilgan issiqlik qurilmalar:

(issiqlik qurilmalarining nomi)

1.1. Issiqlik qurilmasining tarkibi va tavsifi:

1.1.1. Issiqlik yuklamalari:

T/r	Nomi	Yuklamaning turi, iste‘moli	Miqdori	O‘lchov birligi
1.	Isitish	maks.		Gkal/soat
2.	Shamollashtish	maks.		Gkal/soat
3.	Texnologik ehtiyojlar	maks.		Gkal/soat
4.	Issiq suv ta‘minoti	o‘rtacha sutkalik		Gkal/soat
5.	Issiq suv ta‘minoti	maks.		Gkal/soat
6.	Issiqlik manbaning sarfi	maks.		tn/soat
7.	Qaytgan kondensat	maks.		tn/soat
8.	Sizib chiqish miqdori	me‘yoriy		tn/soat, Gkal/yil
9.	Issiqlik yo‘qotishlari	me‘yoriy		Gkal/yil
10.	Issiqlik energiyasining yillik iste‘moli	taxminiy		Gkal/yil

1.1.2. Issiqlik energiyasi manbai issiqlik eltuvchisining tavsifi

Issiqlik eltuvchisining nomi	Joylashgan napor, atm			Harorat grafigi			Statik bosim, m
	R ₁	R ₂	DP	T ₁	T ₂	DT	
Suv, bug‘							h _m

1.2. Texnik hujjatlar:

1.2.1. Texnik shartlar:

berilgan.

(texnik shartni bergan tashkilotning nomi)

1.2.2. Issiqlik ta‘minoti loyihasi

ishlab chiqilgan.

(loyihalash tashkilotning nomi, ishlab chiqish tartibi va sanasi)

Mazkur loyiha issiqlik qurilmasi issiqlik tarmog‘iga ulanadigan tashkilot bilan kelishilgan

(loyihalash tashkilotning nomi, ishlab chiqish tartibi va sanasi)

1.2.3. Montaj va ishga tushirish hamda sinashlar

bajarilgan.

(tashkilotning nomi)

1.2.4. Issiqlikdan foydalanish qurilmasi, issiqlik tarmog‘i, taqsimlash punkti (MTP, ShTP), texnik va mualliflik nazorati egasining “ ___ ” y.dagi imzosi bilan tasdiqlangan pasporti rasmiylashtirilgandan so‘ng foydalanishga ruxsat beriladi:

1.2.5. Issiqlik iste‘molining ichki tizimi qabul qilish dalolatnomasi bilan taqdim etiladi:

isitish, “ ___ ” y.dagi; IST “ ___ ” y.dagi;

shamollatish “_____” _____ y.dagi;

texnologik ehtiyoj “_____” _____ y.dagi

1.2.6. Issiqlik qurilmasi ulangan issiqli tarmog‘i tashkilotining 20__ y. “_____” _____ dagi ma’lumotnomasi

_____ (tashkilotning nomi)

2. Issiqlik qurilmasini ko‘rib chiqishda va texnik hujjatlarni tekshirishda quyidagilar aniqlandi:

2.1. Issiqlik qurilmani ekspluatatsiya qilishni tashkil etish:

2.1.1. Issiqlik qurilmasi ekspluatatsiya qilish _____

_____ tomonidan amalga oshiriladi.

(iste‘molchi tashkilotning yoki issiqlik qurilmasi egasining nomi (kerakligining tagiga chizing))

2.1.2. Issiqlik xo‘jaligi uchun javobgar shaxs _____

_____ (lavozimi)

_____ (F.I.O.)

20__ y. “_____” _____ dagi _____ - son buyruq bilan tayinlangan.

20__ y. “_____” _____ dagi qonunchilikda o‘rnatilgan tartibda TEQQ va HTQ bilimlar tekshiruvidan o‘tgan, jurnaldagi _____ — son yozuvi.

2.1.3. Issiqlik texnik xodimlarining soni va malakasi bo‘yicha muvofiqligi _____

2.1.4. Issiqlik qurilmasining pasportlari _____

2.2. Issiqlik qurilmalarining texnik holati (TEQQ va TQ ga muvofiqligi)

2.2.1. Issiqlik tarmoqlari _____

2.2.2. Issiqlik punktlari _____

2.2.3. Tizimlar:

isitish _____

shamollatish _____

issiq suv ta‘minoti _____

texnologik qurilmalar _____

kondensatni to‘plash va qaytarish tizimlari _____

3. Xulosa

_____ (texnik ko‘rikdan o‘tkazishga taqdim qilingan issiqlik qurilmalarining ekspluatatsiya qilishga tayyorligi)

Mansabdor shaxs _____ (lavozimi, hududiy bo‘limning nomi) _____ (F.I.O.)

20__ y. “_____” _____

_____ (imzo)

Iste‘molchi tashkilotining, yoki issiqlik xo‘jaligiga javobgar shaxs (yuridik shaxs uchun)

_____ (lavozimi, tashkilotning nomi)

_____ (F.I.O.)

20__ y. “_____” _____

_____ (imzo)

Iste‘molchining M.Sh. yoki Issiqlik qurilmasining egasi (jismoniy shaxslar uchun) _____

_____ (F.I.O., telefon raqami)

“_____” _____ 20__ y.

_____ (imzo)

(7-ilova O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 3-iyundagi 348-sonli qarori tahririda — Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 04.06.2020-y., 09/20/348/0716-son)

Yuridik va jismoniy shaxslarni issiqlik ta‘minoti tarmoqlariga ulash bo‘yicha davlat xizmatlari ko‘rsatishning ma‘muriy reglamentiga

8-ILOVA

“TASDIQLAYMAN”

_____ (Issiqlik ta‘minoti korxonasi rahbarining F.I.O.)

20 __ y. “__” _____

**Issiqlikdan foydalanish qurilmalari va issiqlik tarmoqlarini issiqlik tarmoqlariga ulash
DALOLATNOMASI**

20 __ y. “__” _____ dagi __ - son

Mazkur dalolatnoma issiqlik ta’minoti korxonasining vakili tomonidan

_____ (lavozimi, F.I.O.)

“O‘zenergoinspeksiya”ning _____;

_____ (lavozimi, F.I.O.)

qurilish-montaj va ishga tushirish-sozlash tashkilotining vakili _____;

_____ (qurilish-montaj va ishga tushirish-sozlash tashkiloti vakilining lavozimi, F.I.O.)

iste’molchining vakili _____

_____ (iste’molchi tashkilotining nomi yoki issiqlik qurilma egasining F.I.O.)

_____ ishtirokida tuzildi.

Ulashning tavsifi:

Obyektning nomi : _____

Manzil: _____

Asosiy issiqlik ta’minotining issiqlik tarmog‘iga ulanish nuqtasi:

_____ :

Zaxiradagi issiqlik ta’minotining asosiy issiqlik tarmog‘iga ulanish nuqtasi:

_____ :

Ulanish nuqtasidagi issiqlik elituvchining (suv, bo‘g‘) parametrlari: $R_1 = \text{___ atm}$,

$R_2 = \text{___ atm}$, $T_1 = \text{___ } ^\circ\text{S}$, $T_2 = \text{___ } ^\circ\text{S}$;

Issiqlik ta’minoti korxonasi tomonidan “__” _____ 20 __ y. _____ - son texnik shart berildi.

Ruxsat etilgan maksimal issiqlik yuklamasi _____ Gkal/soat, t/soat, shundan:

texnologik ehtiyojlarga _____ Gkal/soat, t/soat;

isitishga _____ Gkal/soat, t/soat;

issiqlik suv ta’minotiga _____ Gkal/soat, t/soat;

shamollatishga _____ Gkal/soat, t/soat.

Iste’molchining issiqlik ta’minoti tizimidan tarmoq suvining maksimal sarfi _____ m^3/ch ;

Kondensatning qaytishi _____ %, t/soat;

Issiqlik (bug‘) tarmog‘ining balans mansublik bo‘linish chegarasi:

Issiqlik ta’minoti loyahasiga muvofiq hisoblangan quvvat _____ kVt.

Quyidagi bilan tasdiqlanadiki, iste’molchining issiqlikdan foydalanish qurilmasi va issiqlik tarmog‘ining issiqlik ta’minoti korxonasi tarmog‘iga ulash qonunchilikka muvofiq bajarilgan.

Tomonlarning imzolari:

issiqlik ta’minoti

korxonasidan: _____ (imzo)

_____ (sana)

O‘zenergoinspeksiya: _____ (imzo)

_____ (sana)

qurilish-montaj va ishga

tushirish-sozlash _____ (imzo)

_____ (sana)

tashkilotidan:

Arizachidan: _____ (imzo)

_____ (sana)

(imzo)

Izoh: Subiste’molchilarning issiqlikdan foydalanish qurilmalari va issiqlik tarmoqlarini issiqlik tarmoqlariga ulash dalolatnomasi, mazkur Dalolatnoma talablari asosida rasmiylashtiriladi.

(7 va 8-ilovalar O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 9-iyuldagi 567-sonli qaroriga asosan kiritilgan — Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 11.07.2019-y., 09/19/567/3404-son)

Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 31-martdagi 256-son qaroriga
4-ILOVA

Yuridik va jismoniy shaxslarni suv ta'minoti va suvni chiqarib tashlash tarmoqlariga ulash bo'yicha davlat xizmatlari ko'rsatishning

MA'MURIY REGLAMENTI

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Ushbu Reglament yuridik va jismoniy shaxslarni (keyingi o'rinlarda iste'molchilar deb ataladi) suv ta'minoti va suvni chiqarib tashlash tarmoqlariga ulash tartibini belgilaydi.

2. Ushbu Reglamentning amal qilishi quyidagilarga tatbiq etiladi:

suv ta'minoti va suvni chiqarib tashlash tarmoqlarini loyihalashtirish va qurilish-montaj ishlarini bajarishga;

loyiha-smeta hujjatlarida suv ta'minoti va suvni chiqarib tashlash tarmoqlarini qurish va rekonstruksiya qilish ishlarini amalga oshirish nazarda tutilgan obyektlarga.

Ushbu Reglament O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Majburiy ijro byurosining (keyingi o'rinlarda Byuro deb ataladi) ko'rsatmasi bo'yicha oldin suv ta'minoti va suvni chiqarib tashlash tizimlaridan uzilgan iste'molchilarni qayta ulash jarayoniga tatbiq etilmaydi.

3. Suv ta'minoti va suvni chiqarib tashlash xizmatlarini ko'rsatish bo'yicha shartnomani tuzmasdan suvni yetkazib berish va oqova suvlarni qabul qilish taqiqlanadi.

Oldingi tahririga qarang.

4. Iste'molchilarni suv ta'minoti va suvni chiqarib tashlash tarmoqlariga ulash jarayoni quyidagilarni nazarda tutadi:

texnik shartlarni ishlab chiqish (yangi obyekt qurilishida arxitektura-rejalashtirish topshirig'ini ishlab chiqish doirasida amalga oshiriladi);

suv ta'minoti va suvni chiqarib tashlash loyihasini ishlab chiqish va kelishish;

qurilish-montaj ishlarini amalga oshirish;

suvni hisobga olish priborini plombalash;

suv ta'minoti va suvni chiqarib tashlash xizmatlarini ko'rsatish bo'yicha shartnomani tuzish;

suvni yetkazib berish va oqova suvlarni qabul qilish.

Suv ta'minoti va suvni chiqarib tashlash loyihasi mazkur Reglament hamda Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 18-maydagi 370-son qarori bilan tasdiqlangan Loyiha-smeta hujjatlarini kelishish hamda bir vaqtda obyektning zilzilaga bardoshliligi va yong'in xavfsizligi bo'yicha loyihaviy yechimlarini ekspertizadan o'tkazish bo'yicha davlat xizmatlari ko'rsatishning **ma'muriy reglamentiga** asosan binolar, inshootlar va boshqa obyektlar qurilishining loyiha-smeta hujjatlarini ko'rib chiqish va kelishish jarayoni bilan bir vaqtda kelishilishi mumkin.

(4-band O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 28-noyabrdagi 961-sonli qarori tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 29.11.2019-y., 09/19/961/4092-son)

5. Iste'molchilarni suv ta'minoti va suvni chiqarib tashlash tarmoqlariga ulash jarayonini amalga oshirishda:

a) suv quvurlari va kanalizatsiya xo'jaligi tashkiloti (keyingi o'rinlarda SQKX tashkiloti deb ataladi):

texnik shartlarni ishlab chiqadi;

loyihalash va qurilish-montaj ishlarini amalga oshiradi (iste'molchining ixtiyoriga ko'ra);

Oldingi tahririga qarang.

suv ta'minoti va suvni chiqarib tashlash loyihasini, shu jumladan binolar, inshootlar va boshqa obyektlar qurilishining loyiha-smeta hujjatlarini ko'rib chiqish va kelishish jarayoni bilan bir vaqtda texnik shartlarga muvofiqligini ko'rib chiqadi va kelishadi, agar loyiha ishlab chiquvchi loyihalash tashkiloti bo'lsa;

(5-bandning beshinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 28-noyabrdagi 961-sonli qarori tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 29.11.2019-y., 09/19/961/4092-son)

suvni hisobga olish priborini plombalashda ishtirok etadi;

suv ta'minoti va suvni chiqarib tashlash xizmatlarini ko'rsatish bo'yicha shartnoma tuzadi;

suvni yetkazib berish va oqova suvlarni qabul qilishni amalga oshiradi;

b) loyihalash va qurilish-montaj tashkilotlari loyihalash va qurilish-montaj ishlarini amalga oshiradi (iste'molchining ixtiyoriga ko'ra);

v) Byuro suvni hisobga olish priborini plombalashda ishtirok etadi.

6. Davlat xizmatlari markazlari, Byuro, SQKX tashkilotlari, loyihalash va qurilish-montaj tashkilotlari o'rtasida axborot almashinuvi elektron raqamli imzoni (keyingi o'rinlarda ERI deb ataladi) majburiy tartibda qo'llash orqali faqat idoralararo elektron o'zaro bog'lanish yordamida amalga oshiriladi.

7. Iste'molchilarni suv ta'minoti va suvni chiqarib tashlash tarmoqlariga ulash ushbu Reglamentga [1-ilovaga](#) muvofiq sxema bo'yicha amalga oshiriladi.

2-bob. Davlat xizmatlari ko'rsatish tartibi

1-§. Murojaatlarni shakllantirish va yuborish

8. Iste'molchilar suv ta'minoti va suvni chiqarib tashlash tarmoqlariga ulanish uchun Davlat xizmatlari markazlariga o'zi kelib murojaat etadi yoki O'zbekiston Respublikasi Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalida (keyingi o'rinlarda YIDXP deb ataladi) davlat xizmatlaridan elektron tarzda foydalanish uchun ro'yxatdan o'tadi.

9. O'zi kelib murojaat etganda Davlat xizmatlari markazi xodimi iste'molchi nomidan, YIDXP orqali murojaat qilinganda esa iste'molchi mustaqil ravishda ushbu Reglamentga [2-ilovaga](#) muvofiq davlat xizmatlaridan foydalanish uchun so'rovnomani elektron tarzda to'ldiradi.

Zarur hollarda so'rovnomada ulanish nazarda tutilayotgan suv ta'minoti va suvni chiqarib tashlash tarmoqlarini balansda saqlovchilarning roziligi mavjudligi haqidagi ma'lumotlar ko'rsatiladi.

So'rovnomaga quyidagi hujjatlar elektron shaklda ilova qilinadi:

obyektning aholi yashash joyi hududiga nisbatan joylashishi aks ettirilgan vaziyat rejasi (tarxdan ko'chirma nusxasi);

ulanayotgan obyektning suvdan foydalanish turlari, shu jumladan, o't o'chirish bo'yicha ko'rsatkichlari (subiste'molchilarni hisobga olgan holda) aks ettirilgan suv iste'moli va suvni chiqarib tashlash hajmi to'g'risidagi ma'lumot;

boshqa jismoniy va yuridik shaxslarning mulkida bo'lgan suv quvurlari — kanalizatsiya tarmoqlariga ulanish uchun ruxsatnoma.

Iste'molchilardan ushbu bandda ko'rsatilmagan ma'lumotlarni va boshqa hujjatlarni taqdim etishni talab qilish qat'iy taqiqlanadi.

Oldingi tahrirga qarang.

10. Iste'molchi zarur ma'lumotlarni rasmiylashtirgandan va so'rovnomaga kiritgandan so'ng uni o'z ERI bilan tasdiqlaydi.

O'zi kelib murojaat etgan taqdirda, so'rovnomani ERI bilan tasdiqlash imkoniyati bo'lmagan hollarda tegishli imzolar identifikatsiya qilishning boshqa vositalari (daktiloskopiya, elektron imzo va boshqalar) bilan ham tasdiqlanishi mumkin.

(10-band O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 2-iyuldagi 548-sonli qarori tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 02.07.2019-y., 09/19/548/3362-son)

Oldingi tahrirga qarang.

11. Davlat xizmatlarini ko'rsatish uchun bazaviy hisoblash miqdorining 10 foizi miqdorida yig'im undiriladi, suv ta'minoti va suvni chiqarib tashlash loyihasi binolar, inshootlar va boshqa obyektlar qurilishining loyiha-smeta hujjatlarini ko'rib chiqish va kelishish jarayoni bilan bir vaqtda kelishiladigan holatlar bundan mustasno.

(11-bandning birinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 28-noyabrdagi 961-sonli qarori tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 29.11.2019-y., 09/19/961/4092-son)

Oldingi tahrirga qarang.

Davlat xizmati ko'rsatilishi uchun YIDXP orqali murojaat etilganda, ushbu bandning [birinchi xatboshida](#) ko'rsatilgan yig'im summasining 90 foizi undiriladi.

(11-band O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 2-iyuldagi 548-sonli qaroriga asosan ikkinchi xatboshi bilan to'ldirilgan — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 02.07.2019-y., 09/19/548/3362-son)

Davlat xizmatlarini ko'rsatish uchun yig'im to'langanligini tasdiqlash axborot-kommunikatsiya tizimlari orqali amalga oshiriladi.

Oldingi tahrirga qarang.

12. Yig'imlar summasi quyidagi tartibda taqsimlanadi:

a) Davlat xizmatlari markazlariga o'zi kelib murojaat etganda:

20 foizi — O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi budjetdan tashqari jamg'armasining shaxsiy hisob raqamiga o'tkaziladi;
qolgan mablag'lar to'liq SQKX tashkilotining bank hisob raqamiga o'tkaziladi;

b) YIDXP orqali murojaat etilganda:

10 foizi — O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi budjetdan tashqari jamg'armasining shaxsiy hisob raqamiga o'tkaziladi;

Oldingi tahrirga qarang.

11,25 foizi — O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Loyiha boshqaruvi milliy agentligi qoshidagi Elektron hukumat va raqamli iqtisodiyot loyihalarini boshqarish markazi" DUKning hisob raqamiga;

(12-band "b" kichik bandining uchinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 14-yanvardagi 24-sonli qarori tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 15.01.2020-y., 09/20/24/0053-son)

qolgan mablag'lar to'liq SQKX tashkilotining bank hisob raqamiga o'tkaziladi.

(12-band O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 2-iyuldagi 548-sonli qarori tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 02.07.2019-y., 09/19/548/3362-son)

Oldingi tahrirga qarang.

13. So'rovnomada noto'g'ri ma'lumotlar ko'rsatilishi, shuningdek, davlat xizmatlarini ko'rsatish uchun yig'imni to'lamaslik davlat xizmati ko'rsatishni rad etish uchun asos hisoblanadi.

(13-bandning birinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 2-iyuldagi 548-sonli qarori tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 02.07.2019-y., 09/19/548/3362-son)

Davlat xizmatlarini ko'rsatishni boshqa asoslar bo'yicha rad etish qat'iyan taqiqlanadi.

14. Iste'molchi davlat xizmatlaridan foydalanishdan u ko'rsatilishining har qanday bosqichida bosh tortish huquqiga ega.

Iste'molchi davlat xizmatlaridan foydalanishdan bosh tortganda uning so'rovnomasi ko'rmasdan qoldiriladi. Bunda, to'langan yig'im summasi qaytarilmaydi.

15. O'zi kelib murojaat etganda Davlat xizmatlari markazlari so'rovnoma to'ldirilgan vaqtdan boshlab bir soat mobaynida uni SQKX tashkilotiga texnik shartlarni ishlab chiqish uchun yuboradi.

YIDXP orqali murojaat qilinganda so'rovnoma avtomatik tarzda SQKX tashkilotiga texnik shartlarni ishlab chiqish uchun yuboriladi.

2-§. Texnik shartlarni ishlab chiqish va berish, shuningdek, tijorat takliflari va shartnomalar loyihalarini taqdim etish

16. SQKX tashkiloti so'rovnoma tushganidan so'ng uch ish kuni mobaynida texnik shartlarni ishlab chiqadi va elektron shaklda Davlat xizmatlari markaziga (o'zi kelib murojaat etganda) yoki iste'molchiga YIDXP orqali (elektron shaklda murojaat qilinganda) yuboradi yoxud ularni ishlab chiqishni rad etadi.

SQKX tashkiloti loyihalash va qurilish-montaj ishlarini amalga oshirish bo'yicha o'zining tijorat takliflarini hamda shartnomalari loyihalarini ham yuborish huquqiga ega.

O'zi kelib murojaat etganda Davlat xizmatlari markazi texnik shartlar hamda SQKX tashkilotining loyihalash va qurilish-montaj ishlarini amalga oshirish bo'yicha tijorat takliflari va shartnomalar loyihalari tushganidan so'ng bir soat mobaynida texnik shartlarga o'zining muhrini bosib, iste'molchiga beradi.

17. Iste'molchining obyektini joylashgan hududda quvvati SQKX tashkiloti tomonidan iste'molchiga suvni yetkazib berish va undan oqova suvlarini qabul qilishni ta'minlaydigan suv ta'minoti va suvni chiqarib tashlash tarmoqlarining mavjud emasligi texnik shartlarni ishlab chiqishni rad etish uchun asos bo'ladi.

Boshqa asoslarga ko'ra texnik shartlarni ishlab chiqishni rad etish qat'iy taqiqlanadi.

18. Ishlab chiqilgan texnik shartlar iste'molchining aloqa qilinadigan ma'lumotlari ilova qilingan holda loyihalash va qurilish-montaj ishlarini amalga oshirish bo'yicha o'zlarining tijorat takliflari va shartnomalar loyihalarini taqdim etishi maqsadida loyihalash va qurilish-montaj tashkilotlarining tanishishi uchun YIDXPda joylashtiriladi.

3-§. Iste'molchilarni suv ta'minoti va suvni chiqarib tashlash tarmoqlariga ulash

19. Suv ta'minoti va suvni chiqarib tashlash loyihasi ishlab chiqish uchun iste'molchilar SQKX tashkiloti yoki boshqa loyihalash tashkilotlari bilan loyihalash ishlarini amalga oshirishga shartnomalar tuzish huquqiga ega.

20. Loyihalash ishlari loyihalash ishlarini bajarish bo'yicha shartnomalarda belgilangan muddatlarda amalga oshiriladi.

Oldingi tahrirga qarang.

21. Loyihalash tashkiloti loyihalash ishlarini amalga oshirgandan so'ng YIDXPda ushbu Reglamentga **3-ilovaga** muvofiq shakl bo'yicha so'rovnoma to'ldiradi va uni o'zining ERI bilan tasdiqlaydi, suv ta'minoti va suvni chiqarib tashlash loyihasi binolar, inshootlar va boshqa obyektlar qurilishining loyiha-smeta hujjatlarini ko'rib chiqish va kelishish jarayoni bilan bir vaqtda kelishiladigan holatlar bundan mustasno.

(21-bandning birinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 28-noyabrdagi 961-sonli qarori tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 29.11.2019-y., 09/19/961/4092-son)

So'rovnoma suv ta'minoti va suvni chiqarib tashlash loyihasi elektron shaklda ilova qilinadi.

Loyihalash tashkilotidan ushbu bandeda ko'rsatilmagan hujjatlar va ma'lumotlarni taqdim etishni talab etish qat'iy taqiqlanadi.

So'rovnoma suv ta'minoti va suvni chiqarib tashlash loyihasi kelishish uchun SQKX tashkilotiga avtomatik tarzda yuboriladi.

22. Suv ta'minoti va suvni chiqarib tashlash loyihasi SQKX tashkiloti tomonidan ishlab chiqilgan hollarda suv ta'minoti va suvni chiqarib tashlash loyihasi kelishish talab etilmaydi.

Oldingi tahrirga qarang.

23. SQKX tashkiloti ushbu Reglamentga **3-ilovaga**, shu jumladan Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 18-maydagi 370-son qarori bilan tasdiqlangan Loyiha-smeta hujjatlarini kelishish hamda bir vaqtda obyektning zilzilaga bardoshlilik va yong'in xavfsizligi bo'yicha loyihaviy yechimlarini ekspertizadan o'tkazish bo'yicha davlat xizmatlari ko'rsatishning ma'muriy reglamentining **2-ilovasiga** muvofiq shakldagi so'rovnoma tushganidan so'ng uch ish kuni mobaynida suv ta'minoti va suvni chiqarib tashlash loyihasi kelishadi yoki kelishishni rad etadi.

(23-bandning birinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 28-noyabrdagi 961-sonli qarori tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 29.11.2019-y., 09/19/961/4092-son)

Suv ta'minoti va suvni chiqarib tashlash loyihasi kelishish uni SQKX tashkilotining ERI bilan tasdiqlash orqali amalga oshiriladi.

24. Suv ta'minoti va suvni chiqarib tashlash loyihasi texnik shartlar talablaridan chetga chiqishi suv ta'minoti va suvni chiqarib tashlash loyihasi kelishishni rad etishga asos bo'ladi.

Boshqa sabablarga ko'ra suv ta'minoti va suvni chiqarib tashlash loyihasi kelishishni rad etish qat'iy taqiqlanadi.

Suv ta'minoti va suvni chiqarib tashlash loyihasi kelishishni rad etish uchun asos bo'lgan sabablar loyihalash tashkiloti tomonidan bartaraf etilgan taqdirda, qayta kelishish takroriy so'rovnoma tushganidan so'ng bir ish kundan oshmagan muddatda amalga oshiriladi.

Suv ta'minoti va suvni chiqarib tashlash loyahasini takroran ko'rib chiqishda SQKX tashkiloti tomonidan avvalgi rad etish asoslarida bayon etilmagan sabablarning keltirilishiga yo'l qo'yilmaydi, avval ko'rsatilgan sabablar bartaraf etilganligini tasdiqlovchi ma'lumotlar bilan bog'liq rad etish sabablari keltirilishi bundan mustasno.

Oldingi tahrirga qarang.

25. Kelishilgan suv ta'minoti va suvni chiqarib tashlash loyihasi u kelishilgan kunda elektron shaklda SQKX tashkiloti tomonidan loyihalash tashkilotiga suv ta'minoti va suvni chiqarib tashlash loyihasi binolar, inshootlar va boshqa obyektlar qurilishining loyiha-smeta hujjatlarini ko'rib chiqish va kelishish jarayoni bilan bir vaqtda kelishiladigan hollarda loyiha tashkilotiga davlat xizmatlari markazi (o'zi kelib murojaat qilgan taqdirda) yoki YIDXP orqali yuboriladi.

(25-band O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 28-noyabrdagi 961-sonli qarori tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 29.11.2019-y., 09/19/961/4092-son)

26. Suv ta'minoti va suvni chiqarib tashlash tarmoqlariga ulash bo'yicha qurilish-montaj ishlarini amalga oshirish uchun iste'molchilar SQKX tashkiloti yoki boshqa qurilish-montaj tashkilotlari bilan tegishli shartnomalar tuzish huquqiga ega.

27. Qurilish-montaj ishlari qurilish-montaj ishlarini bajarish bo'yicha shartnomalarda belgilangan muddatlarda amalga oshiriladi.

4-§. Suvni hisobga olish priborini plombalash, suv ta'minoti va suvni chiqarib tashlash xizmatlarini ko'rsatish bo'yicha shartnomani tuzish, shuningdek, suvni yetkazib berish va oqova suvlarini qabul qilish

28. Suvni hisobga olish priborini plombalash hamda suv ta'minoti va suvni chiqarib tashlash xizmatlarini ko'rsatish bo'yicha shartnomani tuzish suv ta'minoti va suvni chiqarib tashlash tarmoqlariga ulanish bo'yicha qurilish-montaj ishlari bajarilgandan so'ng amalga oshiriladi.

29. O'zi kelib murojaat etganda Davlat xizmatlari markazi xodimi iste'molchi nomidan, YIDXP orqali murojaat qilinganda esa iste'molchi mustaqil ravishda ushbu Reglamentga 4-ilovaga muvofiq suvni hisobga olish priborini plombalash hamda suv ta'minoti va suvni chiqarib tashlash xizmatlarini ko'rsatish bo'yicha shartnomani tuzish uchun so'rovnomaning elektron tarzda to'ldiriladi.

Bunda, so'rovnomada SQKX tashkiloti tomonidan tasdiqlangan suv ta'minoti va suvni chiqarib tashlash tarmoqlariga ulanish muddati ko'rsatiladi.

Iste'molchilardan ushbu bandda ko'rsatilmagan ma'lumotlarni, shuningdek, boshqa hujjatlarni taqdim etishni talab qilish qat'iy taqiqlanadi.

30. Iste'molchi zarur ma'lumotlarni rasmiylashtirganidan va so'rovnomaga kiritganidan so'ng uni o'zining ERI bilan tasdiqlaydi.

Oldingi tahrirga qarang.

O'zi kelib murojaat etgan taqdirda, so'rovnomaning ERI bilan tasdiqlash imkoniyati bo'lmagan hollarda tegishli imzolar identifikatsiya qilishning boshqa vositalari (daktiloskopiya, elektron imzo va boshqalar) bilan ham tasdiqlanishi mumkin.

(30-band O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 2-iyuldagi 548-sonli qaroriga asosan ikkinchi xatboshi bilan to'ldirilgan — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 02.07.2019-y., 09/19/548/3362-son)

31. O'zi kelib murojaat etganda Davlat xizmatlari markazlari so'rovnoma to'ldirilgan vaqtdan boshlab bir soat mobaynida uni SQKX tashkiloti va Byuroga suvni hisobga olish priborini plombalash hamda suv ta'minoti va suvni chiqarib tashlash xizmatlarini ko'rsatish bo'yicha shartnomani tuzish uchun yuboradi.

YIDXP orqali murojaat qilinganda so'rovnoma avtomatik tarzda SQKX tashkiloti va Byuroga suvni hisobga olish priborini plombalash hamda suv ta'minoti va suvni chiqarib tashlash xizmatlarini ko'rsatish bo'yicha shartnomani tuzish uchun yuboriladi.

Oldingi tahrirga qarang.

32. SQKX tashkiloti va Byuro so'rovnoma tushgan kundan boshlab ikki ish kuni mobaynida joyning o'ziga chiqib, tabiiy suvni hisobga olish priborini plombalash ishlarini amalga oshiradi va bu haqda uch nusxada dalolatnoma tuzadi.

Suvni hisobga olish priborini plombalash qo‘shma tasdiqlangan jadvallar asosida oldindan belgilangan vaqtda amalga oshiriladi.

(32-band O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 2-iyuldagi 548-sonli qarori tahririda — Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 02.07.2019-y., 09/19/548/3362-son)

Oldingi tahrirga qarang.

33. Suvni hisobga olish pribori plombalangan kunning o‘zida SQKX tashkiloti rasmiylashtirilgan suv ta’minoti va suvni chiqarib tashlash xizmatlarini ko‘rsatish bo‘yicha shartnomani, Byuro suvni hisobga olish priborini plombalash o‘tkazilganligi to‘g‘risidagi dalolatnomaning bir nusxasini elektron shaklda Davlat xizmatlari markaziga (o‘zi kelib murojaat etganda) yoki iste‘molchiga YIDXP orqali (elektron shaklda murojaat qilinganda) yuboradi.

(33-band O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 2-iyuldagi 548-sonli qarori tahririda — Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 02.07.2019-y., 09/19/548/3362-son)

Oldingi tahrirga qarang.

34. Davlat xizmatlari markazi rasmiylashtirilgan suv ta’minoti va suvni chiqarib tashlash xizmatlarini ko‘rsatish bo‘yicha shartnoma va plombalash o‘tkazilganligi to‘g‘risidagi dalolatnoma kelib tushgandan so‘ng bir soat ichida bu haqida iste‘molchini axborot-kommunikatsiya tizimlari orqali xabardor qiladi.

(34-band O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 2-iyuldagi 548-sonli qarori tahririda — Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 02.07.2019-y., 09/19/548/3362-son)

35. Iste‘molchi rasmiylashtirilgan suv ta’minoti va suvni chiqarib tashlash xizmatlarini ko‘rsatish bo‘yicha shartnoma tushganidan so‘ng besh ish kuni mobaynida uni o‘zining ERI bilan tasdiqlaydi.

Oldingi tahrirga qarang.

Shartnomani ERI bilan tasdiqlash imkoniyati bo‘lmagan hollarda, tegishli imzolar identifikatsiya qilishning boshqa vositalari (daktiloskopiya, elektron imzo va boshqalar) bilan ham tasdiqlanishi mumkin.

(35-band O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 2-iyuldagi 548-sonli qaroriga asosan ikkinchi xatboshi bilan to‘ldirilgan — Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 02.07.2019-y., 09/19/548/3362-son)

Iste‘molchi tomonidan tasdiqlangan suv ta’minoti va suvni chiqarib tashlash xizmatlarini ko‘rsatish bo‘yicha shartnoma SQKX tashkilotiga Davlat xizmatlari markazi tomonidan (o‘zi kelib murojaat etganda) yoki iste‘molchi tomonidan YIDXP orqali (elektron shaklda murojaat qilinganda) yuboriladi.

36. Iste‘molchi suv ta’minoti va suvni chiqarib tashlash xizmatlarini ko‘rsatish bo‘yicha shartnomani tasdiqlashdan bosh tortganda yoki u belgilangan muddatda yuborilmaganda, suv ta’minoti va suvni chiqarib tashlash xizmatlarini ko‘rsatish bo‘yicha shartnoma tuzilmagan hisoblanadi.

37. Suvni yetkazib berish va oqova suvlarni qabul qilish iste‘molchi tomonidan oldindan to‘lov amalga oshirilgan kuni SQKX tashkiloti tomonidan amalga oshiriladi.

38. Ulash hamda suv quvurlari kirish tarmoqlarini yuvish, kanalizatsiya quvurlarini ulash qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

3-bob. Yakunlovchi qoidalar

39. Texnik shartlarni, shu jumladan, qo‘shimcha texnik shartlarni ishlab chiqish, berish, suv ta’minoti va suvni chiqarib tashlash loyihalarini kelishish, suvni hisobga olish priborini plombalash to‘lov undirilmagan holda amalga oshiriladi, davlat xizmatlari ko‘rsatilganligi uchun yig‘im undirilishi bundan mustasno.

40. Davlat xizmatlari markazlari, SQKX tashkilotlari, Byuro, loyihalash va qurilish-montaj tashkilotlari o‘z faoliyatini amalga oshirishi natijasida olingan iste‘molchi haqidagi ma’lumotlarning maxfiyligini ta’minlashi kerak.

41. O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi, uning hududiy boshqarmalari va Davlat xizmatlari markazlari ushbu Reglament talablari ijrosi bo‘yicha

davlat organlari va boshqa tashkilotlarning faoliyati ustidan, shu jumladan, YIDXP orqali, doimiy nazoratni va monitoringni amalga oshiradilar.

42. Iste'molchi davlat organlari va boshqa tashkilotlar xodimlarining xatti-harakatlari yuzasidan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda shikoyat qilishi mumkin.

43. Ushbu Reglament talablari buzilishida aybdor bo'lgan shaxslar qonun hujjatlarida belgilangan tartibda javob beradilar.

Yuridik va jismoniy shaxslarni suv ta'minoti va suvni chiqarib tashlash tarmoqlariga ulash bo'yicha davlat xizmatlari ko'rsatishning ma'muriy reglamentiga
1-ILOVA

Yuridik va jismoniy shaxslarni suv ta'minoti va suvni chiqarib tashlash tarmoqlariga ulash SXEMASI

Oldingi tahrirga qarang.

Bosqichlar	Subyektlar	Tadbirlar	Bajarish muddatlari
I. Texnik shartlarni ishlab chiqish va berish, shuningdek, tijorat takliflari va shartnomalar loyihalarini taqdim etish			
1-bosqich	Iste'molchi	1. Suv ta'minoti va suvni chiqarib tashlash tarmoqlariga ulanish uchun Davlat xizmatlari markaziga o'zi kelib murojaat qilish yoki YIDXPda ro'yxatdan o'tish. 2. Davlat xizmatini ko'rsatish uchun yig'im to'lash.	1. Xohishiga ko'ra 2. Murojaat qilinganda
2-bosqich	1. Davlat xizmatlari markazi 2. YIDXP	Texnik shartlarni ishlab chiqish uchun so'rovnomani SQKX tashkilotiga yuborish.	1. 1 soat mobaynida 2. Avtomatik tarzda
3-bosqich	SQKX tashkiloti	1. Texnik shartlarni ishlab chiqish va Davlat xizmatlari markaziga (o'zi kelib murojaat etganda) yoki iste'molchiga YIDXP orqali (elektron tarzda murojaat etgan taqdirda) yuborish. 2. Loyihalash va qurilish-montaj ishlarini amalga oshirish bo'yicha o'zining tijorat takliflarini va shartnomalar loyihalarini berish huquqi.	3 ish kuni mobaynida
4-bosqich	Davlat xizmatlari markazi	Texnik shartlarni, shuningdek, SQKX tashkilotining loyihalash va qurilish-montaj ishlarini amalga oshirish bo'yicha tijorat takliflari va shartnomalar loyihalarini texnik shartlarga o'zining muhrini bosib, iste'molchiga berish.	1 soat mobaynida
II. Iste'molchilarni suv ta'minoti va suvni chiqarib tashlash tarmoqlariga ulash			
1-bosqich	Iste'molchi	Suv ta'minoti va suvni chiqarib tashlash loyahasini ishlab chiqish uchun SQKX tashkiloti yoki boshqa loyihalash tashkilotlari bilan	Xohishiga ko'ra

		loyihalash ishlarini bajarish bo'yicha shartnomalar tuzish.	<i>(texnik shartlarni olganidan so'ng)</i>
2-bosqich	SQXX tashkiloti yoki boshqa loyihalash tashkilotlari	Suv ta'minoti va suvni chiqarib tashlash tarmoqlariga ulash bo'yicha loyihalash ishlarini amalga oshirish.	Shartnomalarda belgilangan muddatlarda
3-bosqich	Loyihalash tashkiloti	Suv ta'minoti va suvni chiqarib tashlash loyahasini kelishish uchun YIDXPda so'rovnomani to'ldirish.	Xohishiga ko'ra <i>(loyihalash ishlari amalga oshirilganidan so'ng)</i>
4-bosqich	YIDXP	So'rovnomani suv ta'minoti va suvni chiqarib tashlash loyahasini kelishish uchun SQXX tashkilotiga yuborish.	Avtomatik tarzda
5-bosqich	SQXX tashkiloti	1. Suv ta'minoti va suvni chiqarib tashlash loyahasini ERI bilan tasdiqlash orqali kelishish. 2. Kelishilgan suv ta'minoti va suvni chiqarib tashlash loyahasini YIDXP orqali loyihalash tashkilotiga yuborish.	3 ish kuni mobaynida
6-bosqich	Iste'molchi	SQXX tashkiloti yoki boshqa qurilish-montaj tashkilotlari bilan qurilish-montaj ishlarini amalga oshirish bo'yicha shartnoma tuzish.	Xohishiga ko'ra <i>(loyiha kelishilganidan so'ng)</i>
7-bosqich	Suv ta'minoti va suvni chiqarib tashlash yoki boshqa qurilish-montaj tashkilotlari	Suv ta'minoti va suvni chiqarib tashlash tarmoqlariga ulash bo'yicha qurilish-montaj ishlarini amalga oshirish.	Shartnomalarda belgilangan muddatlarda
III. Suvni hisobga olish priborini plombalash, suv ta'minoti va suvni chiqarib tashlash xizmatlarini ko'rsatish bo'yicha shartnomani tuzish hamda suvni yetkazib berish va oqova suvlarini qabul qilish			
1-bosqich	Iste'molchi	Suvni hisobga olish priborini plombalash hamda suv ta'minoti va suvni chiqarib tashlash xizmatlarini ko'rsatish bo'yicha shartnomani tuzish uchun Davlat xizmatlari markaziga o'zi kelib yoki YIDXP orqali murojaat qilish.	Xohishiga ko'ra <i>(qurilish-montaj ishlari tugatilganidan so'ng)</i>

2-bosqich	1. Davlat xizmatlari markazi 2. YIDXP	Suvni hisobga olish priborini plombalash hamda suv ta'minoti va suvni chiqarib tashlash xizmatlarini ko'rsatish bo'yicha shartnomani tuzish uchun so'rovnomanani SQKX tashkiloti va Byuroga yuborish.	1. 1 soat mobaynida 2. Avtomatik tarzda
3-bosqich	1. SQKX tashkiloti va Byuro 2. SQKX tashkiloti	1. Suvni hisobga olish priborini joyning o'ziga chiqib plombalash. 2. Davlat xizmatlari markaziga (o'zi kelib murojaat etganda) yoki iste'molchiga YIDXP orqali (elektron shaklda murojaat qilinganda) rasmiylashtirilgan va plombalanganligi to'g'risidagi ma'lumotlar ko'rsatilgan suv ta'minoti va suvni chiqarib tashlash xizmatlarini ko'rsatish bo'yicha shartnomani yuborish.	2 ish kuni mobaynida
4-bosqich	Davlat xizmatlari markazi	Iste'molchini suv ta'minoti va suvni chiqarib tashlash xizmatlarini ko'rsatish bo'yicha shartnomani rasmiylashtirilganligi to'g'risida axborot-kommunikatsiya tizimlari orqali xabardor qilish.	1 soat mobaynida
5-bosqich	Iste'molchi	1. Rasmiylashtirilgan suv ta'minoti va suvni chiqarib tashlash xizmatlarini ko'rsatish bo'yicha shartnomani tasdiqlash. 2. Tasdiqlangan suv ta'minoti va suvni chiqarib tashlash xizmatlarini ko'rsatish bo'yicha shartnomani SQKX tashkilotiga Davlat xizmatlari markazi tomonidan (o'zi kelib murojaat etganda) yoki iste'molchi tomonidan YIDXP orqali (elektron shaklda murojaat qilinganda) yuborish.	5 ish kuni mobaynida
6-bosqich	SQKX tashkiloti	Suvni yetkazib berish va oqova suvlarini qabul qilishni amalga oshirish.	Iste'molchi tomonidan oldindan to'lov amalga oshirilgan kuni

(1-ilova O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 2-iyuldagi 548-sonli qarori tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 02.07.2019-y., 09/19/548/3362-son)

Yuridik va jismoniy shaxslarni suv ta'minoti va suvni chiqarib tashlash tarmoqlariga ulash bo'yicha davlat xizmatlari ko'rsatishning ma'muriy reglamentiga
2-ILOVA

Oldingi tahrirga qarang.

(sana)

(raqam)

Suv ta'minoti va suvni chiqarib tashlash tarmoqlariga ulash bo'yicha davlat xizmatlaridan foydalanish uchun SO'ROVNOMA

I. (jismoniy) Iste'molchi — jismoniy shaxs to'g'risida ma'lumot:

1. F.I.O.:	
3. STIR:	
4. manzili:	
6. telefon raqami:	
7. elektron pochta manzili:	

I. (yuridik) Iste'molchi — yuridik shaxs to'g'risida ma'lumot:

1. to'liq nomi:	
3. STIR:	
11. telefon raqami:	
12. elektron pochta manzili:	

II. Ulanayotgan obyekt to'g'risida ma'lumot:

1. ulanadigan obyekt joylashuvi (indeks, manzil, mo'ljal):	
2. xizmat turi:	yangi ulanish ulanish nuqtalarini o'zgartirish ishlab chiqarish faoliyati turlarini o'zgartirish

III. Avval ulanganligi to'g'risidagi ma'lumotlar:

1. suv ta'minoti va suvni chiqarib tashlash xizmatlarini ko'rsatish bo'yicha shartnoma tuzilgan sana va raqami:	
-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------	--

(ulangan bo'lsa to'ldiriladi)

IV. Rozilik to'g'risida ma'lumot:

T/r	Suv ta'minoti va suvni chiqarib tashlash tarmoqlarini balansda saqlovchilar — yuridik shaxslarning nomi, suv ta'minoti va suvni chiqarib tashlash tarmoqlarini balansda saqlovchilar — jismoniy shaxslarning F.I.O.	Raqam	Sana
1.			

Berilayotgan texnik shartlardan loyihalash va qurilish-montaj tashkilotlari kelgusida loyihalash va qurilish-montaj ishlarini amalga oshirishda o'z tijorat takliflarini berish maqsadida tanishishi uchun texnik shartlarning Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalida joylashtirilishiga iste'molchining roziligi:

roziman	rozi emasman
---------	--------------

(2-ilova O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 2-iyuldagi 548-sonli qarori tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 02.07.2019-y., 09/19/548/3362-son)

Yuridik va jismoniy shaxslarni suv ta'minoti va suvni chiqarib tashlash tarmoqlariga ulash bo'yicha davlat xizmatlari ko'rsatishning ma'muriy reglamentiga

3-ILOVA

(sana)

(raqam)

**Suv ta'minoti va suvni chiqarib tashlash loyahasini kelishish uchun
SO'ROVNOMA**

I. Kelishilayotgan suv ta'minoti va suvni chiqarib tashlash loyihasi to'g'risida ma'lumot:

1. suv ta'minoti va suvni chiqarib tashlash loyahasining nomi:	
2. loyiha tashkilotining nomi:	
3. loyiha tashkilotining STIR:	
4. loyiha tashkilotining yuridik manzili:	
5. suv ta'minoti va suvni chiqarib tashlash iste'moli hisobi:	

II. Ilova qilinadigan hujjatlar:

1. suv ta'minoti va suvni chiqarib tashlash loyihasi:

Loyihalash tashkilotining
ERI

Yuridik va jismoniy shaxslarni suv ta'minoti va suvni chiqarib tashlash tarmoqlariga ulash bo'yicha davlat xizmatlari ko'rsatishning ma'muriy reglamentiga
4-ILOVA

Oldingi tahririga qarang.

(sana)

(raqam)

**Suvni hisobga olish priborini plombalash hamda suv ta'minoti va suvni chiqarib tashlash xizmatlarini ko'rsatish bo'yicha shartnomani tuzish uchun
SO'ROVNOMA**

Suvni hisobga olish pribori to'g'risida ma'lumotlar:

1. suvni hisobga olish pribori pasporti raqami:	
2. suvni hisobga olish priborining muvofiqlik sertifikatini raqami:	
3. SQKX tashkiloti tomonidan tasdiqlangan suv ta'minoti va suvni chiqarib tashlash tarmoqlariga ulanish muddati	
4. suvni hisobga olish priborining oxirgi marta qiyoslashdan o'tkazilganligi sanasi:	

(4-ilova O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 2-iyuldagi 548-sonli qarori tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 02.07.2019-y., 09/19/548/3362-son)

Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 31-martdagi 256-son qaroriga
5-ILOVA

O'zbekiston Respublikasi Hukumatining o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblanayotgan ayrim qarorlari

RO'YXATI

1. Vazirlar Mahkamasining "Energiya ta'minoti sohasida ruxsat berish tartib-taomillaridan o'tish tartibi to'g'risidagi nizomlarni tasdiqlash haqida" 2014-yil 5-martdagi 52-son qarori (O'zbekiston Respublikasi QT, 2014-y., 3-son, 21-modda).

2. Vazirlar Mahkamasining "Tadbirkorlik subyektlarini elektr va gaz tarmoqlariga foydalanishga tayyor holda ulash tartibini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida" 2015-yil 2-oktabrdagi 280-son qarori (O'zbekiston Respublikasi QT, 2015-y., 10-son, 87-modda).

Oldingi tahririga qarang.

(3-band O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 28-maydagi 342-sonli qaroriga asosan o'z kuchini yo'qotgan — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 29.05.2020-y., 09/20/342/0686-son)

4. Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish, shuningdek ba'zilarini o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblash to'g'risida (O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Tadbirkorlik subyektlariga davlat xizmatlarini ko'rsatish mexanizmlarini takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2017-yil 1-fevraldagi PQ-2750-son qarori)" 2017-yil 1-maydagi 252-son qaroriga 1-ilovaning 18-bandi (O'zbekiston Respublikasi QHT, 2017-y., 18-son, 325-modda).

5. Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida (O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Xuquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlar to'g'risida" 2017-yil 14-martdagi PQ-2833-son qarori)" 2017-yil 20-dekabrda 1001-son qaroriga ilovaning 37-bandi.

6. Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risida (O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Aholiga davlat xizmatlari ko‘rsatishning milliy tizimini tubdan isloh qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2017-yil 12-dekabrda PF-5278-son Farmoni va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida” 2017-yil 12-dekabrda PQ-3430-son qarori)” 2018-yil 22-yanvarda 40-son qaroriga ilovaning [13-bandi](#).

(Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 01.04.2018-y., 09/18/256/1029-son, 20.12.2018-y., 09/18/1030/2348-son; 29.11.2019-y., 02.07.2019-y., 09/19/548/3362-son, 11.07.2019-y., 09/19/567/3404-son, 29.11.2019-y., 09/19/961/4092-son; 15.01.2020-y., 09/20/24/0053-son, 29.05.2020-y., 09/20/342/0686-son, 04.06.2020-y., 09/20/348/0716-son; Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 31.08.2021-y., 09/21/555/0848-son)